

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida inson huquqlarini himoya qilish hamda jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash ustuvor vazifadir. Bu ezgu maqsadga erishishda ichki ishlar organlari tizimida yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va rahbarlik mahoratini egallagan tashabbuskor kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.



8

Sharh

IIV HAY'ATI YIG'ILISHI: yarim yillik sarhisob

Tanqidiy tahlil va qat'iy choralar

Tanqid deganda, asosan biror narsaga baho berish maqsadida uni tahlil qilish, muhokama etish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ro'yirost aytish hamda istiqboldagi vazifalarni belgilab olish tushuniladi. Tanqid asosli bo'lsa, uni e'tiborga olish mavjud kamchiliklarning oldini olishga, taraqqiyotga ijobiy ta'sir etishga olib keladi.

Darhaqiqat, tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Ichki ishlar vaziri raisligida joriy yilning ikkinchi choraklik sarhisobiga bag'ishlangan Hay'at yig'ilishi ana shunday tahliliy-tanqidiy ruhda o'tgani bilan ahamiyatlidir.

Yig'ilishda hisobot davrida mamlakatimiz hududidagi kriminogen vaziyat, sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar muhokama qilinib, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda samaradorlikni oshirish, tezkor-qidiruv tadbirlari va jinoyatlarni fosh etishda tatbiq qilinayotgan yangicha yondashuvlar ijobiy natija berayotganligi qayd etildi.



2-3

YANGI AVLOD RAHBAR KADRLARI xalq manfaatlariga xizmat qiladi



SUDLARDA NIMALAR O'ZGARADI?

«Odil sudlov – 2030» strategiyasi bilan O'zbekistonda sud tizimini yanada ochiq va inson huquqlariga yo'naltirilgan tarzda takomillashtirish choralari belgilandi. 2027-yildan hududlararo sudlar tashkil etilib, ayrim ishlarni qayta ko'rib chiqish vakolati ularga beriladi. Tergov sudyalariga esa shaxsni ushlab turishning qonuniyligi va gumon yoki ayblov uchun asoslar yetarilgini chuqurroq tekshirish imkoni yaratiladi. Shuningdek, 2027-yil avgustidan Oliy sudning yagona sud amaliyotini shakllantiruvchi qarorlari ochiq «Pretsedentlar» reyestrda e'lon qilib boriladi, «my.sud.uz» portalidagi elektron xizmatlar ham yangilanadi.

200 MLN SO'MGACHA GAROVSIZ KREDIT

18-avgust kuni Xivada o'tkazilgan ochiq muloqotda tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar e'lon qilindi. Endi yangi biznes boshlayotganlarga 200 million so'mgacha garovsiz kredit, kichik biznesga 10 milliard so'mgacha kredit olishda esa yengillashtirilgan kafolat mexanizmi beriladi. Sun'iy intellektni ishlab chiqarishga joriy etadigan korxonalar xarajatining 50 foizi qoplanadi, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash uchun kamida 1 milliard dollar yo'naltiriladi. Shuningdek, kichik biznesda ayrim tekshiruvlarga uch yillik moratoriy joriy etilishi, 30 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomaning bekor qilinishi, kelasi yildan esa birinchi xatoga jarima o'rniga ogohlantirish berilishi belgilandi.

50 DAQIQA O'RNIGA 17 DAQIQA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-avgust kuni Xivadagi ochiq muloqotdan so'ng yangi «Urganch – Xiva» avtomobil yo'li bilan tanishdi. 35 kilometrlik to'rt qatorli magistral orqali ikki shahar o'rtasidagi yo'l vaqti 45–50 daqiqadan 15–17 daqiqaga qisqaradi, yo'l esa sutkasiga 30 mingdan ortiq transportni qabul qila oladi. Magistralda 1 ta yerosti tunneli, 8 ta yo'l o'tkazgich va 15 ta ko'priklar barpo etilgan, to'lovlar esa avtomobilni to'xtatmagan holda elektron tarzda amalga oshiriladi. Yangi yo'lda sun'iy intellekt asosida harakat va to'lovlarni boshqarish tizimi qo'llanadi, bunda pullik yo'l-dan foydalanmaydigan haydovchilar uchun muqobil bepul yo'l bo'lishi shart.

Musulmon ZIYO

Sharh

IIV HAY'ATI YIG'ILISHI:

tanqidiy tahlil va

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Vazir, general-leytenant Aziz Tashpulatov kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha so'z yuritarkan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash borasidagi ijobiy natijalarga to'xtaldi.

– jinoyatlarni aniqlash 31 foizga yoki 4 723 taga yaxshilangan;

– 5 778 ta (64 %) mahallada birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan.

Shu bilan birga, tizimda qator muammolar ham mavjud. Bir so'z bilan aytganda, ichki

ning topshiriqlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z holiga tashlab qo'yganligi jiddiy tanqid qilindi. Xususan, jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha aniq topshiriqlar berilgan bo'lsa-da, oldini olish mumkin bo'lgan

yarim baravarga, Toshkent viloyati, Samarqand, Jizzax, Navoiy, Surxondaryoda ikki baravarga hamda Qashqadaryoda 53 foizga oshganligi yuzasidan e'tiroz bildirildi.

Shu bois xizmat hududida jinoyatchilikni jilovlash choralari ko'rmagan, tergovga

choralarini qo'llash bo'yicha takliflar ilgari surildi.

So'nggi paytlarda axborot texnologiyalari rivojlangani sayin ular bilan bog'liq jinoyatchilik ham o'sib bormoqda. Kun tartibidagi ayni masala bo'yicha so'z yuritgan Hay'at raisi 2026-yilning 6 oyida respublikada qariyb 41,5 mingga kiberjinoyat hisobga olinganini va bu jami jinoyatning yarmidan ortig'ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 81 foizga keskin oshganligini aytib o'tdi. Ta'kidlanganidek, jami firibgarlikning 87 foizi, o'g'irlikning 79 foizi axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan, hududlar kesimidagi tahlillarga ko'ra, vaziyat ayrim viloyatlarda yanada jiddiy tus olgan.

Vazir A.Tashpulatov yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xodimlar mas'ulligini oshirish, barcha xodimlarni bu boradagi malaka va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, mavjud axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda kunlik so'rov tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati bevosita xalq ko'z o'ngida kechishini inobatga olsak, ularning muomala madaniyatini oshirish, xizmat intizomi va qonuniylik-

Xususan, respublika hududida o'tkazilgan 125 387 ta ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy tadbir davomida, qariyb 1,2 mln nafar xodim xizmatga jalb etilib, 70 million nafarga yaqin aholi xavfsizligi ta'minlangan;

– 57 marotaba huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tezkor-profilaktik tadbir o'tkazilgan. Jumladan, ikki bosqichda «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirlari hamda «Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish» oyligi o'tkazilgan;

– «Chegara-tozalash», giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan «Dolzarb 40 kunlik» tadbirlari amalga oshirilgan;

– «Qoradori» tezkor-profilaktik tadbirining birinchi bosqichi o'tkazilgan.

Pirovard natijada bir qator ijobiy natijalarga erishilgan:

– oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar 2 309 taga kamaygan;

ishlar organlari hali chinakamiga xalqchil tuzilmaga aylanib ulgurani yo'q.

Xo'sh, hududlarda vazirlik rahbariyatining topshiriqlarini bajarish sur'ati qanday kechgan?

Yig'ilishda ayrim rahbarlar-

jinoyatlar salmog'i ortib ketgan. Ayniqsa, Xorazm va Buxoroda bu raqamlar uch baravarga ortib, eng salbiy natijani qayd etganligi, shuningdek, Toshkent shahri, Sirdaryo, Farg'ona, Namangan va Qoraqalpog'istonda ikki

qadar tekshiruv va tergov faoliyati ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmlarini o'rnatmagan, mahallalarni xavfsiz hududga aylantirish hamda jamoat tartibini saqlash borasida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbarlarga intizomiy jazo

RESPUBLIKA HUDUDIDAGI TADBIRLAR VA NATIJALAR

O'TKAZILGAN TADBIRLAR

IJTIMOY-SIYOSIY VA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLAR



125 387 ta tadbir
Qariyb 1,2 mln nafar xodim
70 million nafar aholi xavfsizligi

HUQUQBUZARLIK LAR NING OLDINI OLISH TADBIRLARI



57 marotaba o'tkazilgan
• "Xavfsiz va sog'lom yurt" (ikki bosqich)



MAQSADLI TADBIRLAR
• "Chegara-tozalash"
• Giyohvandlik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi "Dolzarb 40 kunlik"



"QORADORI" TADBIRI
Birinchi bosqichi o'tkazilgan

PIROVARD
NATIJADA

ERISHILGAN IJOBIY KO'RSATKICHLAR



OLDI OLINISHI MUMKIN
BO'LGAN JINOYATLAR

-2 309



JINOYATLARNI ANIQLASH
YAXSHILANGAN

+31% (+ 4 723 ta)



BIRORTA JINOYAT SODIR
ETILMAGAN MAHALLALAR

5 778 ta (64%)

KIBERJINOYATCHILIK TAHLILI: 2026-YILNING 6 OYLIGI

HISOBGA OLINGAN
KIBERJINOYATLAR

JAMI JINOYATLARNING
50%+ QISMI

41,500+

+81%
O'SISH

O'tgan yilga nisbatan



JAMI FIRIBGARLIK LARDA
KIBERJINOYATCHILIKNING ULUSHI

87%
KIBERFIRIBGARLIK LAR
(IT ORQALI)

13%
AN'ANAVIY FIRIBGARLIK LAR



JAMI O'G'IRLIK LARDA
KIBERJINOYATCHILIKNING ULUSHI

79%
KIBERO'G'IRLIK LAR
(IT ORQALI)

21%
AN'ANAVIY KIBERO'G'IRLIK LAR



YARIM YILLIK SARHISOB

qat'iy choralar

ka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hay'at raisi davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida ichki ishlar organlari moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash va xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga munosib shart-sharoitlarni yaratish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligini aytib, bunga javoban tizimdagi barcha xodimlar halol, pok va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishi zarurligini ta'kidladi.

Murojaatlarga e'tibor insonga e'tibor demakdir. Boisi, har bir murojaat zamirida kimningdir taqdiri, dard-u tashvishi, orzu-umidi yotadi. Vazirlik tizimida fuqarolarni qabul qilish bo'yicha yangicha tizim yo'lga qo'yilgan. Ushbu tartibga muvofiq, har oyda bir marotaba Ichki ishlar vaziri, har haftada bir marta vazir o'rinbosarlari va hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining qabuli tashkil etilyapti.

O'tgan yilning mart oyidan boshlab, IIVda 16 marotaba o'tkazilgan qabullarda jami 9 434 nafar fuqaro bilan ochiq muloqot qilinganligi, barcha hududiy ichki ishlar organlarida (Farg'ona va Namangan viloyatlari bundan mustasno) Prezident Virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar soni sezilarli darajada kamayganligi, jumladan, 208 ta tuman-shahar IIBdan 159 tasida murojaatlar miqdori keskin kamayganligi e'tirof etildi.

General-leytenant A.Tashpulatov ayrim rahbarlar tomonidan qabullar yetarli darajada tashkil qilinmayotganligi oqibatida Farg'ona, Marg'ilon, Guliston, Qarshi shaharlari, Mirzo Ulug'bek, Chiroqchi,

Ko'kdala, Boysun, Yakkasaroy, Yunusobod, Uchtepa tumanlarida murojaatlar soni ko'payganligi, shahar-tuman darajasida hal etilishi mumkin bo'lgan **11 108** nafar fuqaro murojaati IIV darajasida ko'rib chiqilayotgani va ularning salmog'i o'tgan yilga nisbatan **653** taga yoki **6,3** foizga oshganligini tanqid qildi.

Vazir ichki ishlar organlariga kelib tushgan jami murojaatlarning **71** foizini huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligi hamda surishtiruv va tergov bilan bog'liq masalalar tashkil etganligini aytib, murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, takroriy murojaatlar kelib tushishining oldini olish va ular borasida ta'sirchan nazorat choralari o'rnatish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz bizning oldimizga: «Ichki ishlar xodimlari shunday ishlashi kerakki, toki xalq davlatdan rozi bo'lsin», – degan yuksak talabni qo'ygan edi. Osoyishtalik posbonlari ushbu talabdan kelib chiqqan holda xalqimizni rozi qilish yo'lida zimmalaridagi mas'uliyatli, ayni paytda, sharaflı vazifalarini matonat va sadoqat bilan bajarish uchun doimo xizmatga tayyor. Zero, kasbiga sadoqatli, fidoyi xodimlarimiz zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni chuqur his etgan holda, kun-u tun o'z burchlarini vijdonan bajarib, xalqimiz va Prezidentimiz ishonchini oqlashi, fuqarolarimizning konstitutsiyaviy huquqlarini sharaflı bilan himoya qilishlari shart va zarurdir.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.

Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, xodimlar o'rtasida xizmat intizomini mustahkamlash, aholining murojaatlarini o'z vaqtida hal etish yuzasidan

BELGILAB OLINGAN MUHIM VAZIFALAR:

1	Hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, jinoyatchilikni oyma-oy va choraklik tahlil qilgan holda, viloyat darajasida og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha yil yakunigacha mo'ljallangan manzilli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;	
2	Bezoriлик jinoyatining oldini olish bo'yicha «Toshkent shahar va Surxondaryo tajribasi»ni ishlab chiqish va respublikaning barcha hududlariga tatbiq etish;	
3	Barcha vazir o'rinbosarlari tomonidan hududlarga borgan holda, kriminogen vaziyatni yaxshilash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida amaliy yordam ko'rsatish;	
4	Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, ularni aniqlash, fosh etish, yetkazilgan zararni undirish borasida natijadorligi past hududlar bo'yicha tanqidiy muhokama o'tkazish, rahbarlarning mas'uliyatini kuchaytirish;	
5	Kiberprofilaktika samaradorligini oshirish bo'yicha barcha shaxsiy tarkibning, birinchi navbatda, profilaktika inspektorlarining kiberjinoyatchilik va uning oldini olish borasida malakasini oshirish;	
6	Ichki ishlar organlariga aholi murojaatlarini tahlil etgan holda, murojaatlar salmog'i yuqori bo'lgan tergov, yo'l harakati xavfsizligi va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohalar bo'yicha qabullar soni hamda murojaatlarni hal etish darajasini oshirish borasida zarur chora-tadbirlarni kuchaytirish;	
7	«Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi» davomida ichki ishlar organlarining ma'muriy binolari, xizmat uylari va yashash xonadonlarini obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etmagan mas'ul rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy ta'sir choralari qo'llash;	
8	Xodimlar tomonidan xizmat intizomini buzish holatlarining oldini olish maqsadida ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish;	
9	Xodimlarning jismoniy-jangovar tayyorgarligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy bilim darajasini mustahkamlash borasidagi ishlarni jadallashtirish.	

Asosiy maqsad – har bir mahallada xavfsiz muhit yaratish, jinoyatchilikka sabab bo'luvchi omillarni barvaqt bartaraf etish va aholi osoyishtaligini ta'minlash. Bu vazifani samarali amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla va jamoatchilikning hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Samarqand tajribasi

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA
YANGICHA YONDASHUV

Jamiyatda osoyishtalikni ta'minlash inson qadri, oila xotirjamligi va ertangi kunga bo'lgan ishonchning eng muhim shartidir. Tinchlik va barqarorlik esa, avvalambor, jinoyat va huquqbuzarlikka olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, bartaraf etish hamda har bir fuqaroning muammosiga yechim topishdan boshlanadi.



Toxir ARIPOV,
Samarqand viloyati IIB boshlig'i, general-mayor.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2026-yil 5-yanvarda davlatimiz rahbari tomonidan «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, joriy yil boshida belgilangan vazifalar hamda ilg'or hududiy tajribalar asosida Samarqand viloyatida jinoyatchilikning oldini olishda yangicha yon-

dashuv shakllantirildi. Bunda asosan jinoyatga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni oldindan aniqlash, muammolarni mahallaning o'zida hal etish va har bir fuqaroning xavfsizligini ta'minlashga urg'u berildi. Shu ma'noda, viloyatda shakllantirilgan «Samarqand tajribasi» jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasida amaliy natijaga yo'naltirilgan yangi yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Har qanday tizimning samaradorligi, avvalo, unda faoliyat yuritayotgan xodimlarning bilim, malaka, ko'nikma va mas'uliyatiga bog'liq. Shu bois viloyat IIBda 2026-yil «Xodimlarni o'qitish yili» sifatida belgilandi. Dastlab aholi bilan bevosita muloqot qiladigan so-

haviy xizmatlar xodimlarining 1776 nafari, keyingi bosqichda esa qolgan shaxsiy tarkib o'qitildi. Buning natijasida xizmat intizomini mustahkamlash bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi. Kelgusida xodimlarning huquqiy bilimi, psixologik tayyorgarligi va fuqarolar bilan muloqot ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari izchil davom ettiriladi.

«Samarqand tajribasi»ning eng muhim jihati muammo ortidan emas, sabab ortidan borishda. Har bir mahalla, har bir xonadon va har bir fuqaro kesimida xavfni oldindan ko'ra bilish, jinoyatchilikka ta'sir qilayotgan ijtimoiy omillarni aniqlash va bartaraf etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Xususan, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni uning yashash manzilida mahalla yettiligi va qo'ni-qo'shnilari ishtirokida muhokama qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Ushbu yondashuv huquqbuzarlikning takroran sodir etilishi yoki uning jinoyatga aylanishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Joriy yilning birinchi yarmida viloyatda profilaktik ishlarni yanada kuchaytirish, muammolarni aniqlash va bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 14,1 foizga kamayishiga erishildi. Mavjud 1063 ta mahallaning 526 tasida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Yil boshida kriminogen vaziyati og'ir deb baholangan 80 ta ma-

hallada aniq chora-tadbirlar ko'rilishi natijasida ularning 44 tasi, ya'ni 55 foizi «yashil» toifaga o'tkazildi.

2026-yilning birinchi yarmi davomida viloyat hududida jami 20 697 ta ommaviy tadbir o'tkazilib, ularda ishtirok etgan 5 million 996 ming 160 nafar fuqaroning xavfsizligi ta'minlandi. Buning uchun har bir ommaviy tadbirdan oldin hududagi mavjud vaziyat va ehtimoliy xavf omillari chuqur o'rganilib, xavfsizlik choralari belgilab olindi.

Shu davr ichida viloyatga 3 557 200 nafar xorijiy va 4 921 300 nafar mahalliy sayyohlar tashrif buyurdi. Ularning xavfsizligini ta'minlash, turistik obyektlar, tarixiy-madaniy meros obidalari, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish maskanlari va boshqa gavjum joylarda jamoat tartibini saqlashga alohida e'tibor qaratildi. Turistlar ko'p tashrif buyuradigan hududlarda patrullik xizmatlarini samarali tashkil etish, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar va mehmonlarning murojaatlariga tezkor munosabat bildirish, zarur hollarda tegishli xizmatlarni jalb etish orqali xavfsiz muhit yaratish choralari kuchaytirildi.

Viloyatimizda kiberxavfsizlikni ta'minlashda profilaktikaga alohida urg'u berilmoqda. Jumladan, Telegram guruhlar va kanallarda tarqatilayotgan zararli apk fayllarni aniqlash, ularning tarqalishini cheklashga mo'ljallangan «Xavfsiz kibermakon» maxsus boti orqali

4 473 ta virusli fayl ushlab qolindi. Zararli fayllarning qurilmalarga o'rnatilishini cheklashga xizmat qiluvchi «Kiberhimoya» ilovasi ham aholi o'rtasida keng qo'llanilmoqda. Hozirda ilovadan foydalanayotganlar soni 100 ming nafardan oshdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida fuqarolarga yetkazilgan 10 milliard 164 million so'm mablag' undirildi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi nafaqat inson salomatligiga, balki oilalar tinchligi, jamiyat barqarorligi, ayniqsa, yoshlarning kelajagiga jiddiy tahdid soladi. Ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonida 927 ta holat aniqlanib, 170 kilogramm 303 gramm giyohvandlik vositalari hamda 6625 dona psixotrop dori vositalari noqonuniy muomaladan chiqarildi.

Bugun «Samarqand tajribasi»ning mohiyatini shunday ifodalash mumkin: jinoyat sodir bo'lganidan keyin uning oqibati bilan kurashish emas, jinoyatga olib kelishi mumkin bo'lgan har bir omilni oldindan ko'ra bilish va xavfni o'z vaqtida bartaraf etish.

Eng muhimi, bu tizimning markazida raqam emas, inson turibdi. Zero, osoyishta mahalla – xotirjam oila, xotirjam oila esa farovon va barqaror jamiyatning eng muhim poydevoridir. «Samarqand tajribasi» – bu jinoyatchilikka qarshi kurashish, xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan yangicha yondashuv, manzilli profilaktika va inson manfaatini ustuvor qo'ygan amaliy tizimdir.

Aziz IKROMOV,
Karmana tumani IIB boshlig'i,
podpolkovnik:

– Ichki ishlar organlari faoliyatining natijadorligi, avvalo, raqamlarda emas, balki odamlarning xotirjamligida, hududning osoyishtaligida va jinoyatchilikning oldini olishda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu ma'noda yaqinda IIV Hay'ati yig'ilishida Karmana tumani IIB faoliyatining ijobiy baholangani jamoamiz yanada yaxshiroq ishlashi uchun rag'batdir. Bu natija ortida har bir xodimning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashuvi, mahallalarda olib borilayotgan profilaktik ishlar va keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik mujassam.

Tumanda jinoyatchilik o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,7 foizga kamaydi.

Eng muhimi, o'ta og'ir turdagi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Bunga profilaktika ishlarini yanada takomillashtirish orqali erishdik. Ayniqsa, kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan, «qizil» toifaga kiritilgan mahallalarga qo'shimcha kuch va vositalar jalb qilinib, profilaktik tezkor tadbirlar, reydlar, targ'ibot ishlari hamda nazorat choralari kuchaytirildi.

O'tgan yili «qizil» toifada bo'lgan «Arg'un», «Beshkent» va «Yangiariq» mahallalarida tizimli chora-tadbirlar natijasida jinoyatchilik keskin kamaydi. Bunda mahalla yettiligining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning qo'shma xulosasi asosida jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yildi va ko'rilgan chora-tadbirlar 80 foiz samara berdi.



HAR BIR MAHALLANI JINOYATCHILIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANTIRAMIZ

Bugungi tezkor va globallashuv zamonida jinoyatlarning sodir etilish usullari o'zgarmoqda, yangi tahdidlar paydo bo'lmoqda. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashishda kechagi mezonlar bilan yondashib bo'lmaydi. Ayniqsa, profilaktika ishlarini yangicha yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va manzilli chora-tadbirlar asosida tashkil etish talab etilmoqda.

Hozirgi kunda Farg'ona viloyatida asosiy e'tibor jinoyatning oqibatlariga qarshi kurashishga emas, balki unga sabab bo'layotgan omillarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilmoqda. Joriy yil boshidan viloyatdagi kriminogen vaziyati og'ir 142 ta mahallaga mas'ul rahbarlar nomma-nom biriktirilib, bu orqali muammolarni bevosita mahalla darajasida o'rganish, mas'uliyatni aniq belgilash va natijadorlikni ta'minlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Masalan, Farg'ona shahridagi «102» xizmatiga ko'p murojaat tushadigan mahallalarga boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, sohaviy xizmat rahbarlari va mas'ul xodimlar biriktirildi. Ular har kungi ishini o'ziga biriktirilgan hudud-dan boshlab, murojaatlarga sabab bo'layotgan muammolarni joyida o'rganib, hal etishmoqda. Natijada keyingi paytda salbiy holatlar va murojaatlar o'z-o'zidan kamaydi.

Sir emas, ko'plab huquqbuzarlik va jinoyatlarning zamirida oiladagi nizo, ijtimoiy muammolar, ishsizlik, nazoratsizlik yoki tarbiyaviy muhitning yetarli emasligi kabi omillar yotadi. Shu bois

«Xavfsiz oila» dasturi ishlab chiqilib, nizoli oilalarning aniq toifalari belgilab olindi va ularning reyestri shakllantirildi. Viloyat, shahar va tuman darajasidagi rahbarlar nizoli oilalar yashaydigan mahallalarga biriktirilib, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli guruhlar ish boshladi.

Xuddi shuningdek, alohida toifadagi, probatsiya nazoratidagi va jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga ham tuman IIB boshliqlari, ularning o'rinbosarlarini biriktirib, doimiy nazorat va muloqot mexanizmini yo'lga qo'ydi. Qolaversa, hozirgi vaqtda og'ir turdagi jinoyatlarni o'sha mahallada, keng jamoatchilik va faollar ishtirokida doimiy muhokama qilib boryapmiz.

Eng muhimi, bu ishlar aniq natija berdi. Joriy yilning 6 oyi yakuniga ko'ra, oila-turmush doirasidagi jinoyatlar 1,1 barobarga, ma'muriy huquqbuzarliklar esa 1,5 barobarga kamaydi. Jinoyat turlari kesimida ham ijobiy natijalar kuzatildi. Oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar, qotillik, tan jarohati yetkazish, oilaviy zo'ravonlik, o'g'rilik, firib-

garlik, bezorilik, shuningdek, voyaga yetmaganlar, yoshlar va ayollar jinoyatchiligini sezilarli darajada kamaytirishga erishildi.

Jinoyatchilikning oldini olishda hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ilg'or tajribalar joriy etilmoqda. Shu o'rinda Qo'qon shahrida yo'lga qo'yilgan tizimli ishlar haqida alohida to'xtalib o'tishim zarur.

Joriy yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida shaharda Chilonzor va Mirzo Ulug'bek tajribalari asosida tezkor shtab tuzildi. Uning asosiy vazifasi – jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tezkor aniqlash va ularga nisbatan o'z vaqtida chora ko'rishdan iborat.

Bundan tashqari, Qo'qon shahar IIB Vaziyatlarni nazorat qilish markazida «Qalqon» dasturi ishga tushirildi. Qo'riqlovga olingan obyektlar va jamoat joylariga «SOS» tugmalari o'rnatilib, tizimga integratsiya qilindi. Bu favqulodda holatlarda xabarni tezkor qabul qilish hamda hodisa joyiga zarur kuch va vositalarni zudlik bilan yo'naltirish imkonini bermoqda.

Profilaktika inspektorlari ham veb-kameralar bilan ta'minlanib, xizmat faoliyatini masofadan nazorat qilish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, chaqiruvlarga PPX, Qo'riqlash

xizmati, Milliy gvardiya va profilaktika inspektorlarining bir vaqtning o'zida yetib borishi yo'lga qo'yildi, tungi vaqtda avtobuslarda patrullik guruhlari faoliyati tashkil etildi.

Xavfsizlikni ta'minlashda «hodisa sodir bo'lsa, keyin boramiz» tamoyilidan «hodisa sodir bo'lishining oldini olamiz» tamoyiliga o'tilmoqda. Bunday yondashuv samarasi o'laroq, Qo'qon shahrida joriy yilning dastlabki 6 oyi davomida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 2025-yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobarga kamaydi, jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 1,9 barobarga yaxshilandi. «Yashil» toifadagi mahallalar soni 28 taga ko'payib, birorta ham mahalla «qizil» toifaga tushmadi.

Bugun jinoyatchilikka qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq texnologiyaning o'zi yetarli emas. Fuqarolarning media savodxonligini oshirish, ularni internet va axborot xavflaridan xabardor qilish, eng muhimi, aholidan tezkor, qulay va anonim ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirish ham zarur. Shu maqsadda aholining mediasavodxonligini oshirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirish barobarida, «Xavfsiz bot» hamda giyohvandlik bilan bog'liq holatlar haqida anonim murojaatlarni qabul qiluvchi



Ayubxon RAHMATULLAYEV,
Farg'ona viloyati IIB
boshlig'i, polkovnik.

«Stopnarko» Telegram botlari yaratildi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning bosh mezonini faqat sodir etilgan jinoyatlar soni bilan belgilab qo'ymasdan, ularning oldini olish, kriminogen vaziyati og'ir mahallalarni «yashil» hududlarga aylantirish, aholining xavfsizligi va xotirjamligini ta'minlash bilan baholamoqdamiz.

«Farg'ona tajribasi»ning mohiyati har bir mahalla, har bir oila va har bir fuqaroga manzilli yondashish orqali jinoyatning sabab va omillarini oldindan aniqlab, paydo bo'lishidan avval bartaraf etishdan iborat. Asosiy maqsadimiz esa har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli, aholi uchun xavfsiz va osoyishta hududga aylantirishdir. Bu maqsadga erishish uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solamiz.



Abduxalil NOSIROV, Jondor tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik:

– Profilaktika ishlarida jinoyat oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra, uning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik va xavf omillarini barvaqt aniqlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mahalla yettiligi bilan hamkorlikda oilaviy muammolar, ishsizlik, nosog'lom muhit va boshqa xavf omillarini bartaraf etishga qaratilgan manzilli ishlar olib borilmoqda.

Tuman IIBning sohaviy xizmatlaridan patrul-post naryadlari shakllantirilib, «Ko'cha» va «Xavfsiz tun» kabi profilaktik tadbirlar yo'lga qo'yildi. «Chilonzor tajribasi» asosida har bir mahallaga IIBning sohaviy xizmat rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari biriktirildi. Ularga

hududlarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jamoat tartibini saqlash va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha aniq vazifalar yuklatildi.

O'tgan davrda jinoyat sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan 16 toifadagi 6090 nafar ijtimoiy profilaktika obyekti bo'yicha xulosalar berildi. Shundan 5621 tasi bo'yicha profilaktik ishlar yakunlandi.

Aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida bozorlar, mahallalar va jinoyatchilik ko'p sodir bo'ladigan hududlarda nazorat kuchaytirildi. O'g'irliklarning oldini olish uchun kunduzgi va tungi avtopatrullik yo'nalishlari kengaytirildi, aholi o'rtasida mol-mulkni asrash bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqda.



Jarayon

XAVFSIZ MUHITNI YARATISH
YO'LIDA

Insonning xotirjamligi, oilaning tinchliligi va mahallaning osoyishtaligi – jamiyat barqarorligining kafolatidir. Shu bois bugun jinoyatchilikka qarshi kurashishda asosiy e'tibor sodir etilgan jinoyat oqibatlarini bartaraf etishga emas, balki unga olib kelishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni oldindan aniqlash va barvaqt bartaraf etishga qaratilmoqda.

Toshkent viloyatida ham ushbu yondashuv asosida profilaktika ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Endilikda mahalladagi vaziyatni umumiy baholash bilan cheklanib qolmay, har bir mahalla, har bir xonadon va har bir muammo kesimida «fuqarobay» manzilli ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Xususan, viloyatdagi 883 ta mahallaning kriminogen vaziyatidan kelib chiqib, og'ir vaziyatdagi hududlarga alohida yondashuv joriy etildi. Jumladan, kriminogen vaziyati og'ir deb baholangan 108 ta mahallaga IIV va Toshkent viloyati IIBBning 108 nafar malakali rahbar xodimi birlashtirildi.

Ishga faqat amaliy emas, ilmiy yondashuvni ham kuchaytirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari hamda Kriminologiya tadqiqot institutining 40 nafar professor-o'qituvchisi ushbu mahallalarga nomma-nom birlashtirildi. Ular mahalla yetiligi, ayniqsa, profilaktika inspektorlari bilan yelkama-yelka ishlab, hududdagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etishda amaliy hamda nazariy ko'mak berib kelmoqda.

Natijada kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan 108 ta mahallaning 57 tasida birona ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Ayniqsa, viloyatda 5 yildan buyon «qizil» toifada turgan 10 ta mahallaning 9 tasi ushbu toifadan chiqarildi.

Jinoyatchilikning oldini olishda mahallaning o'zidagi vaziyatni o'rganish bilan cheklanish samara bermaydi. Chunki har bir jinoyat ortida muayyan inson, oila yoki ijtimoiy muammo bo'lishi mumkin. Shu bois viloyatda xonadonlar alohida toifalarga ajratilib, 913 ming 510 ta oila to'liq o'rganildi. Ularning orasidan profilaktik ta'sir choralari talab qiladigan oilalar alohida ajratib olindi.

E'tiborli jihati, bu oilalar bilan ishlashning aniq davriyligi belgilab qo'yildi. Ya'ni, «qizil» toifadagi oilalar – har kuni, «sariq» toifadagilar – har hafta, «yashil» toifadagilar – har oyda o'rganilib, ulardagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha manzilli profilaktik ishlar olib borildi. Natijada olti oy davomida oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlar 394 ta (19 foiz)ga kamaydi. 470 ta mahallada jinoyat sodir etilma-

di, 343 tasida esa jinoyatchilik kamayishiga erishildi. Kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan «qizil» toifadagi mahallalar soni yil boshiga nisbatan 31 taga kamayib, 100 tadan 69 taga tushdi.

Bu raqamlar profilaktika ishlarining qog'ozda emas, mahalla va xonadon darajasida amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Zero, profilaktika faqat nazorat yoki ogohlantirishdan iborat emas. Ayrim hollarda insonni jinoyatdan qaytarish uchun unga ish, ijtimoiy ko'mak yoki hayotiy muammosini hal etishda amaliy yordam kerak bo'ladi. Shu maqsadda probatsiya hisobida turgan 11 ming 919 nafar shaxs bilan manzilli ishlar olib borildi. Ularning 7 ming 384 nafari ish bilan ta'minlandi, 2 ming 283 nafarining ijtimoiy muammolari hal etildi. Bu yondashuvning mazmuni oddiy: insonning muammosini bartaraf etish orqali uning qayta huquqbuzarlik sodir etish xavfini ham kamaytirish.

Jinoyatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sodir



Abduvosit ABDURAZAKOV,
Toshkent viloyati IIBB boshlig'i,
polkovnik.

etilgan jinoyatlarning 64 foizi fosh etildi, 496 nafar qidiruvdagi shaxs ushlanib, jazo muqarrarligi ta'minlandi, bedarak yo'qolgan 42 nafar fuqaro o'z oilalariga qaytarildi.

Bugun jinoyatchilikning ko'rinishi ham o'zgarmoqda. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangani sari kibermakondagi xavflar ham ortib bormoqda. Shu sababli viloyati IIBBda Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi tashkil etildi.

Kiberjinoyatlarning oldini olish va fuqarolar mablag'larini himoya qilish maqsadida «Card Block», «Turon» va «Kibershild» tizimlari ishga tushirildi. Natijada fuqarolar murojaatlari 22 foizga kamaydi. Eng muhimi, fuqarolarning bank plastik kartalaridan 13 milliard so'mdan ortiq mablag' o'g'irlanishining oldi olindi. Shuningdek, Toshkent viloyati tajribasi sifatida viloyatdagi 139 ta korxona mas'ullari «Kiber gigiyena»

dasturi asosida kiberprofilaktika ishlariga jalb etildi.

Zamonaviy xavfsizlik tizimini raqamli texnologiyalar-siz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois hozirda viloyatdagi 883 ta mahallaning 330 tasi to'liq kameralashtirildi. Yil yakuniga qadar mahallalarning barchasini kameralashtirishni maqsad qilganmiz.

Viloyatda jinoyatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yagona maqsad – el-yurt tinchliligi va osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yaxlit tizimga aylanmoqda. Bu yo'ldagi yangicha yondashuvlar bir nuqtda tutashadi – jinoyat sodir bo'lishini kutish emas, uning oldini olish. Zero, oldi olingan har bir jinoyat – bir insonning jabrlanishidan saqlangani, hal etilgan har bir muammo – bir oilaning xotirjamligi ta'minlangani, xavfsiz qilingan har bir mahalla – minglab fuqarolarning osoyishta hayoti kafolatlanganidir.

Farruxbek USAROV, Quva tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik:

– Quva tumani IIBda profilaktik tadbirlarni manzilli tashkil etish, har bir mahalladagi muammoni chuqur o'rganish va uning yechimini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aholi o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan 1 278 ta targ'ibot tadbiri o'tkazilib, jinoyatlarni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddi tashkilotlarga 408 ta taqdimnoma kiritildi. Huquqbuzarlik sodir etgan 12 389 nafar shaxsga nisbatan qonuniy choralar ko'rildi.

Jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda mahallabay ishlashga alohida urg'u berilmoqda. Tumandagi «Da-

mariq», «Iftixor», «Go'zal», «Toshhovuz», «G'alaba» va «Quva» mahallalari og'ir toifaga kiritilib, ularga mas'ul rahbarlar birlashtirildi. Bugungi kunda ushbu mahallalarning 3 tasi «sariq», 3 tasi «yashil» toifada bo'lib, tumanda «qizil» toifadagi mahalla mavjud emas.

Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish maqsadida 115 ta profilaktik tadbir o'tkazilib, 462 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. 627 ta oila o'rganilib, aniqlangan muammolarning asosiy qismi bartaraf etildi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash ham kuchaytirildi. Joriy yilning 7 oyida tuman hududida giyohvandlik bilan bog'liq 64 ta jinoiy holat aniqlanib, noqonuniy muomaladan 2 kilogramm 53 gramm giyohvand-



lik vositalari ashyoviy dalil sifatida olindi.

Har bir mahallani xavfsiz, har bir ko'chani osoyishta, har bir xona-

donni xotirjam hududga aylantirish yo'lida profilaktik ishlarimizni izchil davom ettiramiz.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

HALOL MEHNAT –

BARAKALI

HAYOT ASOSI



yillar davomida vijdonan xizmat qilib, xalq va hamkasblar e'tiborini qozongan faxriylar hamda tajribali xodimlarning hayot yo'li va xizmat tajribasini yosh xodimlarga yetkazish lozim, chunki yoshlarda kasbga sadoqat va halollik ko'nikmalarini shakllantirishda ustozlarning shaxsiy ibratini eng samarali usuldir. Bundan tashqari, xodimlar doimiy ravishda o'zlarining huquqiy va ma'naviy bilimlarini oshirib borishi, badiiy hamda ilmiy adabiyotlarni o'qishi va tarixiy-milliy qadriyatlarni o'rganishi uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa xodimlarning ruhiy dunyosini boyitadi hamda ularni turli nojo'ya va salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy qalqon vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, halol mehnat nafaqat insoniy fazilat, balki ichki ishlar organlari xodimi faoliyatining bosh mezon, uning hayotiy va kasbiy

Inson hayotining ma'nosi, uning jamiyatdagi obro'-e'tibori va xonadonidagi qut-baraka, eng avvalo, halol mehnat darajasi bilan o'lchanadi. Halollik shaxsning e'tiqodi, dunyoqarashi va ma'naviy kamolotini belgilab beruvchi eng oliy mezon sanaladi. Asrlar davomida «Halol mehnat – mangu rohat», «Haloldan kelgan baraka – elga to'y, haromdan kelgan kulfat – boshga g'ov» kabi naqlar bejiz aytilmagan. Ushbu purhikmat so'zlar ortida insoniyatning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ma'naviy-axloqiy saboqlari va yuksak e'tiqodi mujassam. Halol yo'l bilan topilgan rizq va mehnat mahsuli nafaqat xonadonga moddiy baraka olib kiradi, balki inson qalbiga ajralmas xotirjamlik hamda ichki halovat baxsh etadi.

Ma'rifatparvar bobolarimiz ta'kidlaganidek, mehnatning halolligi insonning irodasini toblaydi va uning yuzini yorug' qiladi. Mehnati halol bo'lmagan kimsaning esa na qalbida halovat va na oilasida baraka bo'ladi. Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda, jamiyatimizda tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda, har bir soha vakilidan, ayniqsa, davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlaridan o'z xizmat vazifalariga mas'uliyat va halollik bilan yondashish talab etilmoqda.

Bugun «halol mehnat» tushunchasi barcha sohalarida sifat ko'rsatkichi hamda barqaror rivojlanishning asosiy drayveriga aylanib bormoqda.

Ichki ishlar organlarida xizmat qilish – kasbiy faoliyat turi emas, balki xalqimiz, davlatimiz oldidagi yuksak ma'naviy-huquqiy burch va oliy mas'uliyatdir. Jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka

qarshi murosasiz kurashish kabi murakkab vazifalar har bir xodimdan yuksak kasbiy mahorat bilan birga, mustahkam ma'naviyat, temir iroda va pokdomonlikni ham talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni va sohaga oid ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarda xodimlarning halolligi, shaffofligi va xolisligi bosh mezon qilib belgilangan. Ichki ishlar organlari xodimining faoliyatida halollik to'rtta asosiy ustunga tayanadi: birinchidan, har bir murojaat ko'rib chiqilishida hamda surishtiruv va tergov jarayonlarida beg'araz bo'lish va qonun ustuvorligiga qat'iy tayanish; ikkinchidan, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilmasdan, fuqarolar bilan muloqotda samimiy, xushmuomala va adolatli bo'lish; uchinchidan, xizmat guvohnomasi va formasini shaxsiy manfaatlarni qondirish vositasiga aylantirmaslik; to'rtinchidan, har

qanday moddiy yoki ma'naviy og'dirish urinishlariga nisbatan qat'iy rad javobini berib, korruptsiyaga qarshi murosasiz kurashish lozim.

Xodimlarning har bir xatti-harakati, qabul qilayotgan qarori va fuqarolar bilan muloqot tarzi davlat hokimiyatining umumiy obro'siga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Fuqaro ichki ishlar organlari xodimida adolat, halollik va tom ma'nodagi himoyachini ko'rsagina, unda davlatga va qonunga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlanadi. Shu sababli xalq ishonchini qozonish halol xizmatning eng birinchi va asosiy natijasidir. Inson hayotida «halol» va «harom» tushunchalari o'rta-sidagi chegara uning ma'naviy iymoni hamda idroki orqali belgilanadi.

Afsuski, ayrim hollarda xizmat faoliyatida duch kelinadigan korruptsiyaviy jarayonlar, tamagirlik va shaxsiy manfaatni xizmat manfaatlardan ustun qo'yish holatlari nafaqat qonun buzilishiga, balki shaxsning ma'naviy tubanlashuviga olib keladi. Nojo'ya yoki noqonuniy yo'llar bilan topilgan moddiy manfaatlarda hech qachon qut-baraka va xotirjamlik bo'lmaydi. Bu kabi xatti-harakatlar insonning el-yurt oldidagi yuzini qora qiladi, oilasida va farzandlari tarbiyasida salbiy asoratlarni keltirib chiqaradi. Halol va fidoyi xizmat qalbdagi xotirjamlik, yuqori kasbiy g'urur, el-yurt e'tirofi va hurmatiga sazovor qilsa, manfaatparastlik va noqonuniy xatti-harakatlar doimiy xavotir,

vijdon azobi, ma'naviy inqiroz va kasbiy deformatsiyaga sabab bo'ladi.

“ Ichki ishlar organlari xodimi xizmat davomida erishilgan har bir yutuq va navbatdagi unvon – faqat halol va beg'araz xizmat mahsulidir. Noqonuniy boylik orttirish ilinjida qilingan xato xodimning yillar davomida to'plagan barcha obro'-e'tiborini hamda xizmat pillapoyalaridagi yutuqlarini bir lahzada yo'qqa chiqarishi mumkin.

Kasbiy faoliyatida halollikni bosh mezon bilgan xodim xonadoniga doimo tinchlik va fayz hamroh bo'ladi. Tinch va barakali xonadondan chiqqan xodim esa, o'z navbatida, xizmatda ham yuqori natijalarga erishadi, topshirilgan vazifalarni sidqidildan bajaradi. Sharq mutafakkirlari ta'kidlaganidek, farzandlarga beriladigan eng katta meros – halol rizq va toza nomdir. Halol mehnat bilan topilgan har bir so'm oilaning ma'naviy va moddiy ustuni bo'lib xizmat qiladi. Xizmat faoliyatida duch kelinadigan mashaqqat va sinovlarni sabr hamda halollik bilan yengib o'tgan xodim o'z farzandlari uchun haqiqiy hayotiy qahramon va o'rnak namunasiga aylanadi. Ota yoki onasining halol va sharafliligi xizmatidan g'ururlangan farzand ham ke-lajakda halol va vatanparvar inson bo'lib kamol topadi.

Ichki ishlar organlarida halollik muhitini yanada mustahkamlash va har bir xodimning ma'naviy dunyoqarashini boyitish uchun so'nggi yillarda tizimda «Ustoz-shogird» an'alarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Katta tajribaga ega, ko'p

mayog'idir. Halol va sidqidildan qilingan xizmat evaziga erishilgan har bir yutuq, el-yurtning samimiy minnatdorligi, duosi xodim va uning oilasi uchun eng buyuk baraka hamda baxt manbayidir.

Bugun Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz osudaligi va jamoat tartibini saqlash borasida amalga oshirilayotgan barcha ezgu ishlarda halollik va poklik ustuvor tamoyil bo'lib qolishi lozim. Har bir xodim o'z kasbiy burchiga sadoqat bilan yondashsa, halol mehnati bilan jamiyatimizda qonun ustuvorligi va adolatni qaror toptirishga munosib hissa qo'shadi. Zotan, Vatanga va xalqqa sadoqat bilan halol xizmat qilish – oliy sharaf va mustahkam baraka manbaidir!

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.



Qoraqalpoq
tilida



Rus
tilida



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

YANGI AVLOD RAHBAR KADRLARI

xalq manfaatlariga xizmat qiladi



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ta'lim muassasasining magistratura bosqichini tamomlagan ofitserlarning yangi avlod kadrlari sifatida amaliyotga yo'l olishiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya qo'mondonligi vakillari, shuningdek, Akademiya professor-o'qituvchilari va faxriylar ishtirok etgan tadbirida so'zga chiqqan Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov tizimni tubdan isloh qilish va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish davlatimiz rahbarining doimiy e'tiboridagi ustuvor yo'nalish ekanini alohida ta'kidladi.

IIV Akademiyasida joriy etilgan bakalavriyat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli zamonaviy oliy ta'lim tizimi bugun o'z mahsulini bermoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2022 – 2026-yillarda magistratura bosqichini 475 nafar tinglovchi muvaffaqiyatli tamomladi. Ularning 109 nafari «Tashkiliy-strategik boshqaruv», 363 nafari «Tashkiliy-taktik boshqaruv» hamda 3 nafari «Ilmiy-pedagogik faoliyat» yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali rahbar va pedagog kadrlar sifatida tayyorlandi.

– Magistratura bosqichi shunchaki nazariy bilim berish emas, balki yangicha fikrlaydigan, strategik qarorlar qabul qila oladigan va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etadigan zamonaviy boshqaruvchilarni tayyorlash maydonidir, – deydi IIV Akademiyasi Magistratura boshlig'i, polkovnik Bahrom Saidov. – O'quv dasturlarimiz amaliyot va xalqaro tajriba bilan to'liq uyg'unlashtirilgani bois bugun amaliyotga qadam qo'yayotgan har bir bitiruvchimiz tizimda tub o'zgarishlar qila ola-

digan salohiyatli rahbar sifatida shakllandi.

Darhaqiqat, bugungi davr rahbaridan nafaqat qonunchilikni chuqur bilish, balki raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, kibernetika hamda axborot-tahlil vositalarini mukammal egallash ham talab etiladi. Shu bois o'quv jarayonlari kadrlar bilan ishlash, jamoat xavfsizligi, tergov hamda tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etish va boshqarishni qamrab olgan to'rtta asosiy modul asosida olib borilmoqda. O'quv rejalariga «Axborot-tahlil faoliyatini tashkil etish», «Boshqaruv faoliyati va rahbarlik san'ati», «Krisis vaziyatlarni boshqarish», «Ichki ishlar organlari faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishni tashkil



etish» kabi ko'plab dolzarb fanlar kiritildi.

Tinglovchilarning amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti hamda «IT Park»da maxsus o'quv kurslari tashkil etildi.

– O'qish davomida rahbarlik shunchaki lavozim emas, balki el-yurt oldidagi yuksak mas'uliyat ekanini yana bir bor anglab yet-



dik, – deydi podpolkovnik Oybek Kaimxodjayev. – Olgan bilimlarimiz har bir vazifaga sohaning kelajagi va xalq manfaati nuqtayi nazaridan yondashishni o'rgatdi. Endilikdagi asosiy vazifamiz – ushbu tajribani amaliyotga tatbiq etib, hududlarda

o'tkazilgan kompleks jangovar-amaliy mashg'ulotlar hamda Oliy Majlisdagi qonun loyihalari muhokamalarida faol ishtirok etib, o'z bilim va tajribalarini amaliyotda mustahkamlashdi.

– Nazariy va amaliy bilimlarimizni Toshkent shahri tajribasi misolida amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldik, – deydi podpolkovnik Gulmira Turdiboyeva. – Xizmat safari bilan Vengriyada bo'lib, bir narsaga amin bo'ldim. Bugun O'zbekiston faqat xorij tajribasini o'rganuvchi emas, balki o'z milliy tajribasini boshqalarga ulasha oladigan darajaga yetdi. Yaratilgan bunday keng imkoniyatlarga javoban, egallagan bilimlarimizni amaliyotda qo'llab, yuqori natijalar bilan bildirilgan ishonchni oqlaymiz.

Tadbir davomida Ichki ishlar vaziri bitiruvchilarga murojaat qilar ekan, Prezidentimiz va xalqning ishonchini oqlash rahbar uchun eng katta mas'uliyat ekanini alohida uqtirdi. Shuningdek, har bir rahbar, har bir murojaat ortida inson taqdiri, oila taqdiri va kelajakka bo'lgan umid borligini his etib xizmat qilishi, fuqarolarning dard-u tashvishini yuragidan o'tkazib, o'z muammosidek hal etishni insoniy burch deb bilishi lozimligini ta'kidladi.

Tadbir yakunida magistratura bosqichini muvaffaqiyatli tamomlagan 95 nafar bitiruvchiga diplom va ko'krak nishonlari topshirildi. Bugun amaliyotga yo'l olayotgan mas'ullar shunchaki yangi rahbarlar emas, balki islohotlarning joylardagi ijrochisi, xalqning chinakam huquq himoyachisidir. Ular xizmat faoliyatida yangicha fikrlash va zamonaviy yondashuvni qaror toptirib, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va adolatni ta'minlashdek sharaflari vazifani ado etishga kirishishmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

XAVFSIZLIK – UMUMIY MAS’ULIYAT

Mamlakatimizda joriy yilning 1-iyul kunidan 15-avgust kuniga qadar o'tkazilgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirining ikkinchi bosqichi osoyishtalikni ta'minlashning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan keng ko'lamli amaliy harakat bo'ldi. Tadbir davomida tezkor-qidiruv, profilaktika, jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, giyohvandlik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, kiberxavfsizlik, migratsiya, turizm hamda boshqa yo'nalishlarda tizimli ishlar olib borildi.

Tadbir davomida ilgari sodir etilgan, ammo fosh etilmay qolgan jinoyatlarning salmoqli qismi ochildi. 2140 nafar qidiruvdagi shaxslar ushlandi, 1500 nafardan ortiq bedarak yo'qolgan fuqarolar topilib, oilasi bag'riga qaytarildi.

Shu davr ichida 3700 ga yaqin tezkor tadbirlar o'tkazilib, turli miqdordagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomaladan chiqarildi, ularni noqonuniy tarqatish bilan shug'ullangan shaxslar aniqlandi. Ko'chalardagi «narkograffiti»-lar ham e'tibordan chetda qolmadi. Ularning barchasi o'chirilib, aholi, xususan, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan profilaktik ishlar kuchaytirildi. «Call-markaz»ga kelib tushgan 70 taga yaqin murojaatlar asosida tezkor-qidiruv tadbirlari tashkil etildi.

Uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy qurol-yarog' saqlash va boshqa xavfli holatlarga qarshi kurashish yo'nalishida ham muayyan natijalarga erishilib, 3600 taga yaqin jinoiy holatlar hamda 43 400 tadan ortiq ma'muriy holatlar aniqlandi. Targ'ibot ishlarining samarasi o'laroq, fuqarolar tomonidan ayrim qurol va o'q-dorilarning ixtiyoriy ravishda topshirilishi ta'minlandi.

Tadbir jarayonida korrupsiya bilan bog'liq 55 ta jinoiy va 2324 ta ma'muriy holat aniqlandi. Jumladan, poraxo'rlik, noqonuniy yer ajratish, firibgarlik, tovlamachilik va energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish kabi qonunbuzarliklarga chek

qo'yildi. Bu natijalar korrupsiyaga qarshi kurashishning mohiyati faqat jinoyatni fosh etish emas, balki jamiyatda qonuniylik va adolat muhitini mustahkamlashdan iborat ekanini ko'rsatadi.

Bugungi kunda kibermakon ham xavfsizlikning muhim hududiga aylandi. Tadbir davomida 430 tadan ortiq kiberjinoyatlar fosh etildi, 3 ta noqonuniy mayning holati aniqlandi, ilgari ochildi qolgan jinoyatlarning bir qismi fosh etilib, yetkazilgan moddiy zararlar undirildi. Shuningdek, internet monitoringi kuchaytirilib, aholiga axborot xavfsizligi va firibgarliklardan himoyalanih bo'yicha tushuntirishlar berildi. Aholi orasida 177 500 marotabaga yaqin targ'ibot uchrashuvlari tashkil etilib, ijtimoiy tarmoqlardagi birgina shubhali havolaga beparvolik bilan kirish yoki begona shaxsga ishonib shaxsiy ma'lumotlarni ulashish ham jiddiy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkinligi tushuntirildi.

«Xavfsiz va sog'lom yurt» tushunchasi faqat jamoat tartibi bilan cheklanmaydi. Uning eng muhim manbalaridan biri – oiladagi muhit. **Ijtimoiy profilaktika** doirasida yuz minglab fuqarolarning muammolari o'rganilib, ularning aksariyatiga amaliy yechim topildi. Tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida 38 000 nafardan ortiq xotin-qizga himoya orderlari berildi, uzoq muddat uyidan ketib, yana oilasiga qaytgan fuqarolar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi.



Jamoat tartibini saqlash yo'nalishida 262 ta qo'shimcha patrullik hamda 254 ta «Hamkor» yo'nalishlari tashkil etilib, mahallalar, ko'chalar va jamoat joylarida nazorat kuchaytirildi.

Yo'l harakati xavfsizligi ham tadbirning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. «Ravon yo'l» va «Yo'l – piyoda uchun» tamoyillari asosida 75 000 tadan ortiq yo'l belgilari o'rnatildi, yo'l chiziqlari yangilandi, 700 taga yaqin svetoforlar va 1260 tadan ortiq qavariq piyodalar o'tish joylari tashkil etildi.

Probatsiya yo'nalishida nazorat ostidagi shaxslarning yashash va ish joylari o'rganildi, 3 300 taga yaqin mehnat yarmakalari tashkil etildi, kasb-hunarga ega bo'lganlar turli yo'nalishlarda o'qitildi. Bundan tashqari, 1 300 marotabadan ortiq sayyor sudlar o'tkazilib, tuzalish yo'lga o'tgan 8 350 nafar shaxs muddatidan ilgari shartli ozod qilindi.

Qo'riqlash yo'nalishida ko'plab xonadon, savdo shoxobchalari va boshqa obyektlar texnik qo'riqlovga olindi. Ayrim obyektlarda jismoniy qo'riqlash yo'lga qo'yilib, 3 800 tadan ortiq ko'p qavatli uylar kirish qismida tashvish tugmalari o'rnatildi. Shu bilan birga, qo'riqlash tizimiga ulanmagan 56 240 ta xonadon va 52 400 tadan ortiq savdo shoxobchalari egalari o'rtasida uning afzalliklari bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi.

Migratsiya yo'nalishida 506 000 tadan ortiq xonadonlar, mehmonxonalar, korxonalar, sanoat hududlari va boshqa obyektlarda o'rganishlar o'tkazilib, hamyurtlarimiz hamda chet el fuqarolarining tegishli tartiblarga rioya etishi nazorat qilindi. Aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan qonunchilikda belgilangan choralar ko'rildi.


Bugungi xavfsizlik tizimini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tadbir davomida ko'cha va mahallalardagi 27 185 ta videokuzatuv kamerasi xatlovdan o'tkazilib, nosozlari ta'mirlandi, 8 700 taga yaqin yangi kameralar o'rnatildi va ularning bir qismi ichki ishlar organlari tizimiga integratsiya qilindi.

Bir so'z bilan aytganda, «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirining ikkinchi bosqichi yakunlari osoyishtalik o'z-o'zidan qaror topmasligini isbotladi. Bu ne'matning ortida tun-u kun xizmat qilyotgan huquq-tartibot xodimlarining zahmati, mahalla faollarining sa'y-harakati, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, harakat ishtirokchilarining yo'l qoidasiga hurmati, fuqarolarning hushyorligi va jamiyatning qonunga bo'lgan munosabati turadi. Zero, xavfsiz yurt har bir inson o'zini qadrlagan, himoyalangan va xotirjam his qiladigan yurtdir.

Dilrabo ABDOHAMIDOVA,
mutaxassis-muxbir, katta leytenant.

TIZIM FAOLIYATIDAN LAVHALAR

Ozarbayjon Elchisining Ichki ishlar vazirligiga ehtirom tashrifi doirasida hamkorlik masalalari muhokama qilindi



«Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, gangi hayot va kelajak yaratamiz!»



Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yurtdoshlarimizni Mustaqilligimizning 35 yilligi bilan muborakbod etadi!



Qashqadaryoda voleybol bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» respublika musobaqasiga start berildi



«Qoradori – 2026» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida Andijon viloyati IIB Tezkor-qidiruv xizmati xodimlari tomonidan Izboskan tumanida o'tkazilgan tezkor tadbirda 11 kilogramdan ortiq mariyuana giyohvandlik moddasini sotayotgan shaxs qo'lga olindi



Munosabat

YURT QAYG'USI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yildagi siyosiy faoliyat va mamlakatda amalga oshirilgan islohotlarga bag'ishlangan "Yurt qayg'usida 365 kun" kitobi menda katta qiziqish va chuqur taassurot uyg'otdi. U oddiy kitob emas, balki xalqqa xizmat qilishning amaliy namunasidir. Unda davlatimiz rahbarining yurtimiz hududlariga qilgan tashriflari, aholi bilan ochiq muloqotlari, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim muassasalari, mahallalar va qishloqlarda amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi.



Kitobni mutolaa qilarkanman, bir haqiqatni yana bir bor chuqur angladim: mamlakat taraqqiyoti faqat farmon va qarorlar bilan emas, balki ularning ijrosini xalq hayotiga olib kirish, odamlar dardiga quloq tutish va har bir muammoni joyiga chiqib hal qilish bilan ta'minlanadi.

Undan xulosam shuki, millatning buyukligi, avvalo, Vatanga muhabbati, xalq taqdiriga daxldorlik hissi va yurt ravnaqi uchun mas'uliyatni qay darajada anglashi bilan belgilanadi. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, o'z xalqining dard-u tashvishi bilan yashagan, mamlakat taqdirini shaxsiy manfaatidan ustun qo'ygan davlat arboblari, rahbarlar va fidoyi insonlar xalq xotirasida abadiy qolganini ko'ramiz. Chunki yurt qayg'usi – oddiy tushuncha emas, balki inson qalbidagi eng ulug' fazilatlaridan biri, uni ezgulikka, adolatga va fidoyilikka chorlaydigan yuksak ma'naviy mezondir.

Mustaqillikka erishganligining 35 yilligiga tayyorgarlik ko'rayotgan Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati ham aynan inson qadri-ni ulug'lash, xalq manfaatlarini ta'minlash va har bir fuqaro uchun munosib hayot yaratishga qaratilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak. Bu g'oya nafaqat davlat boshqaruvida, balki har bir rahbarning kundalik faoliyatida ham bosh tamoyilga aylanishi zarur.

Kitobning eng muhim jihati shundaki, unda xalq bilan muloqot

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida talqin qilinadi. Chunki xalqning dardini kabinetda o'tirib emas, odamlar orasida yurib, ularning hayoti bilan bevosita tanishib, muammolarini eshitibgina anglash mumkin.

Ushbu kitobni o'qib chiqqanimdan keyin o'z faoliyatimga yanada tanqidiy nazar bilan qarashni boshladim. Chunki haqiqiy rahbar har kuni o'zidan: «Bugun xalq uchun qanday foydali ish qildim? Qaysi insonning muammosini hal qilishga hissa qo'shdim? Men qabul qilgan qaror odamlar hayotini yaxshilaydimi?» – degan savollarni so'rab turishi lozim.

Mamlakat kelajagini barpo etish faqat davlat rahbarining sa'y-harakati bilan emas, balki barcha darajadagi rahbarlar, davlat xizmatchilari, mehnat jamoalari va butun xalqning hamjihatligi bilan amalga oshadi. Shuning uchun ham har bir rahbarning eng muhim vazifalaridan biri jamoada yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish va uni mustahkamlashdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Yurt qayg'usida 365 kun» kitobida aks etgan har bir g'oya har bir rahbar uchun amaliy dastur bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki asarda davlat boshqaruvining asosiy mezonini sifati-da xalq manfaati birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bobur SHUKUROV,
Mingbuloq tumani IIB boshlig'i,
podpolkovnik.

Farzandimning yutug'i

«DADA, MEN O'QISHGA KIRDIM!»

Avgust oyi – barcha abituriyentlar va ularning ota-onalari uchun hayajonga to'la mas'uliyatli davr. Aynan shu kunlarda oliy ta'lim muassasalariga kirish bo'yicha test sinovlari natijalari e'lon qilinib, kimningdir xonadonini quvonchga to'ldirsa, kimdir yanada puxta tayyorgarlik ko'rib, kelasi yilda talaba bo'lishni umid qilib qoladi.

Bu yilgi avgust oyi Surxondaryo viloyati IIB JXX YHXB YPX batalyoni inspektori, serjant Ikrom Rajabov xonadoni ahli yodida o'zgacha, unutilmas xotiralar bilan qoldi. Uning to'ng'ich o'g'li Shohrux bu yil Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetini muvaffaqiyatli tamomladi. Akasining yo'lidan borishni orzu qilgan Mehribonu esa aynan mazkur nufuzli oliygohga hujjat topshirdi. Tanlovning g'oyat yuqoriligi, kuchli raqobat sababli ko'pchilik hatto unga bu universitetdan hujjatlarini olib, boshqa oliy o'quv yurtiga topshirishni maslahat berishdi. Biroq Mehribonu o'z orzusidan voz kechmadi.

tiyaga davlat granti asosida o'qishga kirdim!»

Bu so'zlardan serjant Ikrom Rajabov dovdirab qoldi, quloqlariga ishonmasdi. Ichidagi bor hayajon bir zumda portlab chiqdi – ko'z yoshlarini tiya olmay, dilbandini bag'riga bosib:

– Rahmat, qizim, rahmat! – dedi.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib ketgan mazkur videolavha qisqa fursatda minglab insonlarning qalbini zabt etdi. Mashhur blogerlar ham bu go'zal holatni iliq qarshi olib, eng muhimi – faqat va faqat mehr va hurmatga to'la izohlar ekanligini qayd etishdi. Bironta ham salbiy fikr yozilmadi. Bu oddiy inson,



Test sinovlari bo'lib o'tgach, nihoyat tanlov natijalari ham e'lon qilindi. Aka-singil o'zaro maslahatlashib, otasiga chinakam unutilmas syurpriz tayyorlashga qaror qilishdi. Kelishuvga muvofiq, Shohrux otasiga qo'ng'iroq qilib:

– Dada, Mehribonu o'qishga kirolmadi... – dedi.

– Hatto kontraktga hammi? – otaning ovozi titrab chiqdi. Yuragi shuv etib ketgan Ikrom aka ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib turganida ham farzandiga dalda berish kerakligini his qildi.

– Hozir qayerdasiz?

– Har doimgidek chorrahada xizmat o'tayapman...

– Singlim bilan oldingizga o'tsak, bizga biroz vaqt ajrata olasizmi?

– Kelinglar, bolalarim...

Aka-singil otasi xizmat qilayotgan chorrahaga yetib kelishdi. Shohrux telefon kamerasini yoqib, bu betakror onlarni sekingina tasvirga ola boshladi. Qizining «kayfiyati buzilganini» ko'rgan ota ko'zlariga yosh olib, uni mehr bilan ovuta ketdi. Ana shu lahzada Mehribonu kulimsirab dedi:

«Dada, yig'lamang, men Diploma-

o'z ishiga sodiq xodimning ko'p yillik halol xizmatining chinakam e'tirofi edi. Oddiy oiladan chiqqan ota farzandlariga munosib ta'lim-tarbiya bergandi. Bugun esa farzandlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Barcha mashaqqatlar, tungi navbatchilik va charchoqlar bir lahzada unutilib ketganini u shunday xotirlaydi:

– 25 yillik faoliyatim ko'z oldimdan o'tdi. Hamma charchoqlarim chiqib ketdi. Men farzandlarim bilim olishlariga sharoit yaratdim, bu esa o'z natijasini berdi. Ichki ishlar organlari rahbariyatidan ham cheksiz minnatdorman. Chunki farzandimning o'qishga kirishi uchun berilgan tavsiyanoma biz uchun katta yordam bo'ldi.

Ikrom akaning ko'z yoshlariga sabab bo'lgan quvonchli voqea mashaqqatli yo'lning, halol xizmat va to'g'ri tarbiyaning totli mevasi edi. Chunki chinakam baxt – farzandlarning ota-onayuzini yerga qaratmay, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo'lib voyaga yetishidir.

Aziza BOHODIROVA,
mayor.



Istiqlol tengdoshlari

ENG BUYUK VA BARQAROR TUYG'U

35 yil. Bu keksa tarix uchun qisqa muddat bo'lsa-da, mustaqil O'zbekiston bu davrda asrlarga tatigulik zafarli yo'lni bosib o'tdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'z o'rnini va obro'siga ega bo'ldi.

Erishilgan ulkan yutuqlarda mustaqillik yillarida tug'ilib, hurlik havosidan nafas olib ulg'aygan shijoatli yoshlarning, xususan, ayni paytda yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining munosib hissasi bor. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi 3-mintaqaviy hududi YPX inspektori, safdor Rabiljon Uzaqov ana shunday istiqol tengdoshlaridan biridir.

Kollejni tugatgach, lavhamiz qahramoni 2013-yilda Farg'ona viloyatidagi harbiy qismlardan birida muddatli harbiy xizmatni o'tadi. Qaytgach, onasining nasihati bilan Toshkent axborot texnologiyalari institutiga o'qishga kirdi.

Oliygo'hnini tamomlab, ota kasbini davom ettirish maqsadida dastlab profilaktika inspektori yordamchisi sifatida ish boshladi. 2020-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JTSB PPX otryadida, 2022-yildan esa yo'l-patrul xizmatida faoliyatini davom ettirdi.

– Istiqol tengdoshi ekanimdan faxrlanaman, – deydi R.Uzaqov. – Bugungacha erishgan barcha yutuqlarim – mustaqillik bergan imkoniyatlar mevasi. Eng aziz ne'mat – tinchlik-osoyishtalikni himoya qilishdek sharaflı burchni bajarayotganimdan faxrlanaman. Maqsadim – xalqimizga adolat va qonun ustuvorligi asosida halol xizmat qilish.



Maqolamiz qahramoni turmush o'rtog'i Aynura Jandullayeva bilan Ikramjan va Faziljon ismli farzandlarni tarbiyalamoqda.

Yillar o'tadi, zamon o'zgaradi. Biroq istiqol bilan birga ulg'aygan avlod qalbidagi eng buyuk tuyg'u – Vatanga sadoqat o'zgarmaydi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Madh

ULUG' ASH'ORIM – VATAN!



Mustaqillik kuni tarix solnomasiga bitilgan shunchaki sana emas, balki ajdodlarimizning azaliy orzusi ushlangan muqaddas kundir. Zotan, u bizga erkimizni, o'zligimizni, ona tilimizni qaytardi. Istiqol tufayli dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlab borayotgan mamlakatimiz ulkan imkoniyatlar diyoriga aylandi.

Ozodlik va farovonlikni hayotiy shioriga aylantirgan xalqimizning har bir kuni zavqli va mazmunli kechmoqda. Vatan ravnaqi va yurt tinchligi yo'lida sidqidildan mehnat qilish, hayotdan rozi bo'lib yashash baxti fuqarolarimizning dunyoqarashi hamda ijtimoiy faolligini tobora yuksaltirmoqda.

«Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!» degan ezgu shior barchamizni birlashtiruvchi bosh maqsadga aylandi. Kechagi orzular bugun voqelikka ko'chib, yurtimiz qiyofasi kun sayin o'zgarmoqda. Bir paytlar oddiy niyat bo'lib tuyulgan rejalar bugun muhtasham binolar, zamonaviy korxonalar, obod mahallalar va fayzli xonadonlar timsolida bo'y ko'rsatmoqda.

Qishloqlarimiz qiyofasi shaharlardan qolishmaydi. Qaysi go'shaga bormang, bunyodkorlikning yorqin,

yangi manzaralariga duch kelamiz. Yangi yo'llar, ko'rkam inshootlar, zamonaviy turarjoylar, tibbiyot va ta'lim muassasalari, ko'ngilochar majmualarning barchasida inson qadri va uning munosib hayoti haqidagi ulug' maqsad mujassam.

Obodlik – faqatgina binolar chiroyi emas, balki inson ko'nglidagi xotirjamlik, oiladagi fayz-baraka hamda farzandlarning kelajakka bo'lgan mustahkam ishonchidir.

Yagona Vatan bizni birlashtiradi, yagona xalq qudratli qiladi, yagona maqsad esa buyuk kelajak sari yetaklaydi. Bugungi bunyodkorlik va yangilanishlar ruhini asrab, ezgu niyatlar sari bir tan-u bir jon bo'lib intilaylik. Zero, biz qurayotgan yangi hayot – farzandlarimiz va kelajak avlodlarning farovon istiqbolidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Xavfsiz turizm

TOG'LAR QO'YNIDAGI MO'JIZA

Qadim Samarqandning har bir go'shasi, xususan, Urgutning so'lim tabiati, purviqor tog'lari, zilol suvlari-yu salqin havosi asrlar davomida insonlarni hayratga solib kelgan. Bugun ham ushbu betakror maskan nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik mehmonlar e'tiborida. Ana shunday jozibador go'shalardan biri – Urgut tumanidagi «Bosh-tersak» mahallasidir.



Hozirgi kunda mahalladagi 500 dan ziyod xonadonlarda 2 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Hududning sayyohlik salohiyati yuqoriligi bois bu yerda 30 ga yaqin oilaviy mehmon uyi tashkil etilgan bo'lib, ularning to'rttasi xorijlik mehmonlarga xizmat ko'rsatmoqda.

«Bosh-tersak»ning eng jozibali jihatlaridan biri – tog' darasida joylashgan maftunkor sharsharadir.

Bu mo'jizaviy sharshara tomon borar ekansiz, yo'l bo'yi hamrohlik qiluvchi ulkan xarsangtoshlar go'yo tabiatning sirli haykallaridek ko'zga tashlanadi.

E'tiborli jihat, hududda xavfsizlik masalalariga jiddiy qaralib, viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi bilan doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu yerda mehmon uylarini boshqarayotgan mahalliy aholi

vakillari hudud tarixini juda yaxshi bilishadi. Ular sayyohlarga haqiqiy gid sifatida tog'lardagi sirli tilsimlar, hududda ilk inson qadamlarining paydo bo'lishi va ajdodlarimizning yashash uchun tabiat inijliklari bilan kurashi haqida qiziqarli voqealarni so'zlab berishadi.

Sirasini aytganda, «Bosh-tersak» bugun yangi va istiqbolli turizm maskaniga aylanib ulgurdi. Tizimli targ'i-

bot va yaratilgan sharoitlar samarasi o'laroq, Fransiya, Kanada, Italiya kabi dunyoning o'nlab davlatlaridan har yili bu yerga yuzlab sayyohlar tashrif buyurmoqda. Tabiat qo'ynidagi ushbu mo'jizaviy maskan mahalliy va xorijlik mehmonlarni birdek maftun etmoqda.

Ubaydullo QO'CHQOROV,
kapitan.

Samarqand viloyati.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

INSON HUQUQLARI: XALQARO STANDARTLAR

Ma'lumki, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish ushbu tizim faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etib o'tilgan.

Bu esa mazkur soha vakillarining huquqiy bilimiga, huquqiy ongiga va muomala madaniyatiga oid ko'nikmalarning qay darajada shakllanganiga bog'liqdir. Zero, ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy madaniyati ularning huquqiy bilimlari, ongi va qonunlarga so'zsiz itoat qilish darajasini ifodalaydi. Ushbu tushuncha xodimning kasbiy burchini bajarishda nafaqat adolat va qonuniylikka rioya etishda, balki birinchi navbatda, inson huquqlarini hurmat qilishda, ikkinchi navbatda uni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni o'zlashtirishni ham talab qiladi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-martdagi «O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)ning «Xalqaro standartlar va milliy qonunchilik» mavzusida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika inspektorlari uchun seminar-treninglar tashkil qilish chora-tadbirlari haqida»gi qarori qabul qilindi. Seminar-treninglar ilk bora joriy yilning 15-iyunidan 31-iyuliga qadar ichki

ishlar organlarining barcha hududiy bo'linmalarida o'tkazildi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha profilaktika inspektorlarining jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi kasbiy faoliyatida, shuningdek, davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik jarayonida inson huquqlariga doir xalqaro standartlar bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat edi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 29-iyunida o'tkazilgan profilaktika inspektorlari faoliyati va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan majlisda ko'tarilgan masalalar targ'iboti bilan uyg'un



tarzda olib borilayotganiga e'tibor qaratildi. Xususan, bugungi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi asosida «Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining maqomi to'g'risida»gi qonun loyihasi ustida ish olib borilayotgani ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbarining profilaktika inspektorlariga xos bo'lmagan ortiqcha vazifalardan ularni xalos etish, aholiga xizmat ko'rsatish tizimi asosida ishlash samaradorligini baholash, kadrlar tayyorlash jarayonida

zamonaviy fanlar – xavf-xatar tahlili, raqamli texnologiyalar, profayling va oilaviy mediatsiya kabi yo'nalishlarni joriy etish zarurligi haqidagi ko'rsatmalari yuzasidan atroflicha tushuntirish berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-iyundagi «Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida belgilangan masalalarning mohiyati va ahamiyati xususida atroflicha ma'lumot taqdim etildi.

Xususan, «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb e'lon qilingan joriy yilda mahalla institutining yanada mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishi, mahalla yetiligi faoliyatini samarali tashkil etish, hududlarni kambag'allik, ishsizlik, jinoyatchilik va oilaviy ajrimdan xoli hududga aylantirish borasidagi vazifalar ko'rib chiqildi. Ayni jarayonda mahalla – tuman (shahar) – viloyat – respublika tizimini takomillashtirish orqali aholi muammolarini o'z vaqtida aniqlash va hal etish mexanizmlarining g'oyat muhimligi ta'kidlandi.

Milliy markaz mutaxassislari tomonidan hamkorlar ishtirokida ishlab



Mening fikrim

SALOMATLIK TILAYMAN, INSPEKTOR!

Klinikada bugun ish tig'iz bo'ldi. Ayniqsa, yo'g'on ichigida o'sma aniqlangan bemorning operatsiyasi og'ir kechdi. Jarayon olti soatga cho'zilgan bo'lsa-da, muvaffaqiyatli yakunlanganidan mamnun edim.

Bemorning o'ziga kelishini kutib, yarim tun bo'lganini payqamay qolibman. Toza havoda biroz sayr qilmoqchi bo'ldim. Shahar uxlamayotgan edi. Biroz narida, chorrahada yo'l-patrul xizmati xodimi harakatni bosh-

qarib turardi. Unga bir zum tikilib qoldim: nima uchun bu odam hali ham uyida emas? Ehtimol, uni uyida oilasi hamon uyg'oqdir, kutayotgandir. Ehtimol, charchaganidan oyoqlarida darmon qolmagandir. Ammo uning xizmat burchi bor, zimmasidagi vazifani kunmi, tunmi, bajarishi shart. Shifokorning ishi ham shunday. Bemorning hayoti xavf ostida turgan paytda soatga qarab bo'lmaydi, ba'zan tunlar tongga ulanib ketadi.

Ha, tungi xizmatdagi insonlarning maqsadlari mushtarak: inson hayoti va osoyishtaligini asrash. Shifokor bemor hayoti uchun kurashsa, ichki ishlar organi xodimi esa ana shu hayotga tahdid solishi mumkin bo'lgan xavfning oldini oladi.

Qariyb sakson yillik umrim davomida turli kasb egalari bilan uchrashdim. Ichki ishlar organlari xodimlari bilan ham ko'p bor yuzma-yuz kelganman. Ularning mehnati odamlar ko'zi-



VA MILLIY QONUNCHILIK

chiqilgan seminar-trening dasturi va o'quv moduli asosida o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarida asosiy e'tibor profilaktika inspektorlarida jinoyatlarni ochish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi kasbiy faoliyatida, shuningdek, boshqa xizmatlar, davlat organlari va jamoat birlashmalari bilan hamkorlik jarayonida zarur bo'ladigan inson huquqlariga doir xalqaro standartlar bo'yicha bilimlarni shakllantirishga qaratildi. Qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi masalalariga ham alohida urg'u berildi.

Har bir insonning yashash huquqi uning tabiiy va ajralmas huquqi ekanligi, uning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlik yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda muomalaga duchor etilishi mumkin emasligi, voyaga yetmaganlar, ayollar, nogironlar bilan alohida tartibda muomalaga kirishish, ularning huquqlarini himoya qilish uchun barcha choralar ko'rish zarurligi, inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarda belgilangan mazkur normalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham belgilab qo'yilgani ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, O'zbekistonda davlat organlari, eng avvalo, xalq manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritishi, Konstitutsiyamizda davlat organlari mansabdor shaxslarining jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi belgilanganligi, shu sababli, kundalik hayotda fuqarolarning qonun bilan belgilangan huquq va erkinliklarini

to'laqonli amalga oshirilishi uchun profilaktika inspektorlari davlat xizmatchisi sifatida mas'ul ekanliklari eslatib o'tildi.

Ma'ruzachilar ta'kidlaganidek, bugungi kunda mamlakatimizda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida inson huquqlari madaniyatini shakllantirish ularning kasbiy

va ma'muriy javobgarlik choralari keskin kuchaytirildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bolalar majburiy mehnatiga barham berilishi, Xalqaro mehnat tashkilotining majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya va uning bayonnomasi O'zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinganligi, bola hu-



faoliyatida inson qadri, sha'ni va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ustuvor vazifaga aylantirishga qaratilgan. So'nggi yillarda tergov va hibsga olish jarayonlarida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz munosabatlarga qarshi qat'iy huquqiy cheklovlar qo'yildi hamda javobgarlik kuchaytirildi. Mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazorati va parlament institutsional hamkorligi kengaytirildi.

Hozirgi vaqtda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga beriladigan himoya orderi instituti amal qiladi. Jabrlanganlarning telefoniga tezkor xabar berish tizimlari ulangan. Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini poymol qilganlik, ularga nisbatan zo'ravonlik ishlatganlik uchun jinoiy

quqlarini himoya qilishga qaratilgan kafolatlarni kuchaytirish yuzasidan qonun hujjatlari takomillashtirilganini jahon hamjamiyati ijobiy e'tirof etmoqda. Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturi orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirish, davlat idoralarida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash kabi vazifalar Milliy strategiyaning asosiy yo'nalishlari ekaniga urg'u berildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-martdagi **«O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»**gi qarori inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan

islohotlarning yangi bosqichiga qadam ekanligi ta'kidlab o'tildi. Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, o'tkazilgan seminar-treninglar ishtirokchilar uchun nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy faoliyatda uchraydigan muammolar bo'yicha o'zaro tajriba almashish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish imkonini berdi.

Shuningdek, amaliyotda ayrim ota-onalar farzandlarining tarbiyasiga surunkali ravishda e'tiborsiz munosabatda bo'lishi natijasida bolalar bilan bog'liq baxtsiz hodisalar uchray turishi qayd etilib, bunday holatlarda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan samarali ta'sir choralari ko'rish masalasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish taklif qilindi. Bundan tashqari, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan voyaga yetmagan qizlar, qarovsiz qolayotgan keksalar bilan bog'liq masalalar yuzasidan amaldagi qonunchilik va inson huquqlari standartlari nuqtayi nazaridan samarali choralar ko'rish bo'yicha o'zaro fikr almashildi.

Seminar-trening yakunida ishtirokchilardan inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablarini o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida test sinovlari olinib, ularga Milliy markazning tegishli namunadagi elektron sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda yuqori natijalarga erishgan, xizmat hududlari «yashil» toifada bo'lgan profilaktika inspektorlari Milliy markazning Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandilar.

Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazi direktori, akademik,
yuridik fanlar doktori, professor.

ga ko'pincha voqea sodir bo'lgan paytda ko'rinadi, xolos.

Tungi navbatchilik, uzoq vaqt rulda yoki postda o'tirish, jismoniy va ruhiy zo'riqish, to'satdan paydo bo'ladigan ekstremal holatlar — ko'rinmas yuklar. Bular asta-sekin organizmga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Shu bois men rahbarlik qilayotgan «Yangi hayot» klinikasida ichki ishlar organlari xodimlarining bepul davolanishi yo'lga qo'yilgan. Bu — ushbu kasb egalariga bo'lgan hurmatim ifodasi.

So'nggi yillarda ichki ishlar organlarining xalqqa yaqinligi,

ochiqligi, xodimlarning muomala madaniyati va xizmatga mas'uliyati kuchaydi. Tizimda tashqi ko'rinish, xizmat intizomi, xodimning imiji, ichki va tashqi madaniyatga katta e'tibor qaratilayotgani yaqqol sezilib turibdi.

...Bemor o'ziga keldi. Unga xayrli tun tilab, uyga yo'l olarkanman, chorrahada turgan inspektorga yana ko'zim tushdi. Demak, uning ishi tugamabdi. Uzoqdan shunday dedim: «Salomatlik tilayman, inspektor!»

Sarimbek NAVRO'ZOV,
tibbiyot fanlari doktori,
professor.

Toshkent shahri.

Minnatdorlik

ISHONCH MEHR UYG'OTAR

Inson hayotida ba'zan shunday xatoga yo'l qo'yadiki, ortga qaray desa qilgan qilmishidan yuragi iltirob chekadi, oldinga harakat qilishga esa jur'ati yetmay qoladi...

Ukam ham bilib-bilmay sodir etgan jinoyati tufayli sud hukmi asosida probatsiya nazoratiga olindi. Og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan bir paytda, atrofdagilar, ayniqsa, yaqinlarning turli gap-so'zlari, shubhagumonlari ichida yashash uni battar tushkunlikka tushirdi. Mana shunday murakkab vaziyatda hayoti ijobiy tomonga o'zgarishiga sababchi bo'lgan yaxshi insonlarni uchratdi. Yashnobod tumani IIOFMB Probatsiya bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Erbulat Moldatashov hamda «Yashnobod» mahallasi profilaktika inspektori, kapitan Fazliddin Islamovlarning sa'y-harakatlari tufayli jamiyatda qayta o'rnini topdi. Ular shunchaki, profilaktik suhbatlar, belgilangan tartibdagi nazoratlar, huquqiy va psixologik yordamlar bilan cheklanishmadi, ijtimoiy moslashishida yaqindan ko'maklashdi.

Shu sabab ukam halol mehnat yo'lini tanlab, xatolaridan to'g'ri xulosa chiqardi. Yurtimizda ular kabi insonparvar, samimiy, fidoyi va mas'uliyatli xodimlar ko'payaversin!

Malika BEKMURATOVA.
Toshkent shahri.

Qalb qo'riqchilari

MUSTAHKAM RUHIYAT SARI

Ichki ishlar organlari faoliyatiga nazar solganda, odatda ko'pchilik faqat natijani ko'radi. Ammo uning ortida bir qarashda ko'rinmaydigan mehnat ham bor. Xodimning qat'iyati, vazminligi va mas'uliyatini mustahkamlash yo'lida psixologning hissi ko'pincha ko'zga tashlanmaydi.

Ichki ishlar organlarida psixolog mutaxassis bo'lishi shartmi? Hali-hanuz bu savolni beradiganlar uchraydi. Aslida esa har bir formaning ortida oddiy inson turadi. U ham charchaydi, tashvishlanadi, ba'zan og'ir tanlovlar qarshisida qoladi. Ana shunday paytda uning ruhiy tayanchi kim bo'ladi?

Xorazm viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati bosh psixologi, katta leytenant Madatbek Abdullayev uchun xizmat aynan shu savolga javob topishdan boshlanadi.

U xizmat faoliyatini 2018-yil O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi uni-

versitetida kursant sifatida boshlagan. O'qish davridayoq kasbiga mehri, intizom va mas'uliyat hissi bilan tengdoshlari orasida ajralib turdi. Ana shu intilish uni 2022-yilda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga olib keldi hamda ilk ofitserlik faoliyatiga zamin yaratdi.

Bugun M. Abdullayev nafaqat xodimlarning ruhiy holatini o'rganadi, balki tizimga kirib kelayotgan yosh xodimlarning xizmatga moslashishi, stressni boshqarishi, jamoada o'z o'rnini topishida ham ko'mak beradi. Har bir suhbat, har bir trening va tavsiya ortida muhim maqsad yotadi – ruhiy jihatdan

barqaror, kasbiga sadoqatli hamda xalq ishonchiga munosib xodimni shakllantirish.

– Psixologik yordam ko'rsatish ishlari faqat muammo yuzaga kelganida emas, muntazam va tizimli olib borilishi kerak. Ruhiy jihatdan barqaror xodim xizmat intizomini mustahkamlaydi, jamoada sog'lom muhit yaratadi hamda turli salbiy holatlarning oldini oladi, – deydi katta leytenant Madatbek Abdullayev.



U insonning xatti-harakatini emas, avvalo, ruhiy holatini tushunishga harakat qiladi. Chunki mutaxassis sifatida yaxshi biladi: mustahkam ruhiyat – kuchli jamoaning, kuchli jamoa esa xavfsiz jamiyatning poydevoridir.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Targ'ibot

GAZ BALLONI
SINOVDAN O'TGANMI?

Ba'zan OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali beriladigan avtomobillarga o'rnatilgan gaz ballonlari portlagani, oqibatda fuqarolar jabrlangani to'g'risidagi xabarlarini eshitamiz. Biroq buning asl sababi loqaydlik, talablarga rioya etmaslik ekani to'g'risida o'ylab ham ko'rmaymiz.



Mamlakatimizdagi avtotransport vositalarining aksariyati metan gazi yonilg'isi yordamida harakatlanadi. Jihozlarning texnik nosozligi ortidan yuqori bosimdagi gazning sizib chiqishi hayot uchun xavflidir. Shu bois avtomobillarga o'rnatilgan gaz ballonlar va jihozlarining sozligi ayanchli hodisalarning oldini olishda muhim.

Sirdaryo viloyati IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan navbatdagi nazorat tadbiridagi tekshiruvlar bu boradagi salbiy holatlarning oldini olishga qaratildi. Viloyatning bir qator gaz quyish shoxobchalari va yo'llarda o'tkazilgan reydlar hamma ham tegishli talablarga rioya etavermasligini ko'rsatdi.

Xususan, Guliston shahrida o'tkazilgan reydlarda ayrim gaz

ballonlarining sinov muddati o'tib ketganligi ma'lum bo'ldi. Mirzaobod tumanida istiqomat qiluvchi N. Q. ga tegishli «Gentra» rusumli avtomobilga 2017-yilda gaz jihozlari o'rnatilgan. Gaz balloni bundan to'rt yil oldin sinovdan o'tkazilgan. Sinov muddati o'tib ketgan. Avtomobil egasi bunga befarqlik bilan munosabatda bo'lib kelgan. Shuningdek, Yangiyer shahar Abdurahmon Jomiy nomli mahallada istiqomat qiluvchi K.M. o'ziga tegishli «Tracker» avtomobiliga gaz jihozlarini tegishli ruxsatsiz va tartib-taomillarga zid ravishda o'rnatgani ma'lum bo'ldi.

– Gaz balloni o'rnatganimga uch kun bo'ldi, – deb izoh berdi u. – YHXB ga borishga ulgurmadim. My.gov.uz platformasi orqali ariza berish mumkinligidan xabarim yo'q edi.

Sirdaryo tumani Baxt shaharchasidagi reytd tadbirlarida K.A. ga tegishli VAZ-2107 avtomobili to'xtatib tekshirildi. 1997-yilda ishlab chiqarilgan ushbu transport vositasi o'rganilganda, unga ruxsat berilmagan rusumdagi gaz ballonlari o'rnatilgani aniqlandi. Gaz balloni bundan yigirma yil oldin ishlab chiqarilgan ekan.

Shuningdek, Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXB xodimlari Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi Sirdaryo hududiy bo'limi va «O'zenergoinspeksiya» Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi mutaxassislari hamkorlikda avtomobillarga gaz to'ldirish talablariga rioya etilishini o'rganishdi. Natijada ayrim gaz to'ldirish shoxobchalarida yo'lovchilar, yong'in xavfsizligi, gaz to'ldirishda texnika xavfsizligi talablariga rioya etmayotgani aniqlandi. Ayniqsa, avtomobilga o'rnatilgan gaz jihozlari va ballonlarining talabga javob berishi, qonuniyligiga operatorlar loqaydligi ayon bo'ldi. Aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan qonuniy choralar ko'rildi. Transport vositalariga siqilgan tabiiy gaz quyish jarayonida belgilangan texnik me'yorlar va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etilishi yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Biz – korrupsiyaga qarshimiz!

QIMMATGA TUSHGAN
MASTLIK

Hammasi Qashqadaryo viloyati IIB Shimoli-sharqiy mintaqaviy hudud yo'l-patrul xizmati otryadi YPX inspektori, safdor Shahzod Zoidovning hushyorligidan boshlandi. «Shahrisabz-Miraki» yo'nalishida xizmat olib borayotgan inspektor harakatlanishida shubha uyg'otgan «Cobalt»ni to'xtatdi. Suhbat davomida haydovchi – buxorolik O.Ravshanov rulni mast holda boshqarayotgani ma'lum bo'ldi. Bayonnoma rasmiylashtirilib, mashina jarima maydonchasiga joylashtirildi.



Voqealar rivoji shu bilan tugamadi. Qoidabuzar haydovchi qilmishidan to'g'ri xulosa chiqarish o'rniga, vaziyatdan noqonuniy yo'l bilan chiqib ketishga urindi. Oradan uch kun o'tib, u viloyat IIB YHXB Ma'muriy amaliyot markazi tuman (shahar)larga xizmat ko'rsatish guruhi inspektori, katta serjant Komiljon Hasanovning huzuriga «muammoni hal qilish» uchun keldi. Bayonnomaning yo'q qilish va ulovini jarima maydonidan chiqarib berish evaziga xodimga 1500 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi. Katta serjant unga bu harakati og'ir jinoyat ekanini tushuntirdi, ammo haydovchi o'z fikridan qaytmadi. Xodim pora bilan ishni bitirmoqchi bo'lgan fuqaro

ustidan rahbariyatga bildirgi bilan murojaat qildi.

Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirida O. Ravshanov 1500 AQSH dollarini pora tariqasida berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Spirтли ichimlik ta'sirida avtomashina boshqarish – jinoyatga qo'yilgan birinchi qadam. Bu qadamni pora berish bilan yashirishga urinish esa sizni to'g'ri panjara ortiga boshlaydi. Yuqoridagi kabi voqealar o'zgalarga saboq, nafsiga qul bo'lganlarga dars bo'lishi lozim.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Становление

В НАЧАЛЕ ПУТИ

Учебный год для первокурсников Академии МВД Узбекистана традиционно начинается со сборов на базе Учебно-полевого центра МВД, расположенного в Ташкентской области. Курсанты под руководством строевых офицеров и преподавателей закаляются физически, адаптируются к строгой дисциплине, осваивают азы профессии. Особое внимание уделяется духовно-просветительской работе.

В рамках этой программы состоялась «Встреча трех поколений». Перед курсантами выступили ветераны и опытные наставники. Особый акцент они сделали на реформах, осуществляемых в системе, мерах, направленных на дальнейшее повышение эффективности деятельности. Полковник в отставке, профессор Шавкатбек Мамадалиев подчеркнул, что служба в ОВД по плечу лишь сильным духом, пожелал новобранцам идти к цели, оправдывая высокое звание курсанта.

Ярким событием просветительской программы стала интеллектуальная игра «Заковат», призванная укреплять сплоченность новобранцев. Первокурсники показали высокую эрудицию. Напряженная борьба определила сильнейших: лидером признана сборная «Тумарис», второе место заняла команда «Билимдон», третье – команда «Туркистон».

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



Ветераны в строю

НА БЛАГО ЖИТЕЛЕЙ МАХАЛЛИ

– Четверо наших представителей – председатели МСГ. Накопленный опыт они направляют на благо жителей, – говорит председатель Совета ветеранов ОВД Жондорского района подполковник в отставке Кодир Хайитов.

Он провел нас в сход граждан махалли «Жондор», где с 2022 года председателем является майор в отставке Исомиддин Нарзуллаев.

Войдя в здание, мы обратили внимание на условия. Комнаты небольшие, поэтому рабочие места размещены очень

– Исомиддин Нарзуллаев – человек инициативный и деловитый, – сказал К. Хайитов. – Он много лет служил инспектором профилактики. Жители отзываются о нем с теплотой.

Вскоре к беседе присоединился и сам председатель.

– Я вас не заставил ждать? – слегка смутившись, спросил он. – Молодая семья была на грани развода. Вызвали сватов и вместе обсудили проблему.

Как выяснилось, разногласия в семье начались из-за мелких недопониманий, которые переросли в

нужный подход, то и снег разгорится», – подчеркивает И. Нарзуллаев.

В махалле проживают 920 семей. Основная часть жителей занимается земледелием, животноводством и ремесленничеством. Ощутимая работа проведена в сфере сокращения уровня безработицы. За время председательства И. Нарзуллаева в 148 домохозяйствах были организованы теплицы.

– «Махаллинская семерка» действует сплоченно. Цель – до конца года превратить махаллю в территорию, свободную от безработицы, – отмечает председатель.

В настоящее время махалля активно благоустраивается. Асфальтируется 5,7 километра внутренних дорог, забетонировано 4 километра арыков. Запланировано строительство пешеходной дорожки, 2 спортивных площадок. Будет разбит парк площадью 4 гектара. Организуется 500-метровая улица формата «24/7», где установят 54 фонаря ночного освещения.

Для Исомиддина Нарзуллаева должность председателя – это прежде всего ответственность перед людьми. Честным трудом он служит примером для молодежи.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



компактно. Однако, увидев, что на территории возводится здание, подумали, что его можно приспособить под махаллинский комитет.

сплетни и в итоге обернулись проблемой, урегулирование которой требует неравнодушия.

– Это наша обязанность. Говорят: «Если найти

Из оперативной сводки

МЕРОПРИЯТИЯ ПРОДОЛЖАЮТСЯ

Сотрудники ОВД во взаимодействии с другими правоохранительными органами ведут планомерную работу по выявлению и пресечению фактов незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ.

В ходе оперативно-профилактических мероприятий на территории махалли Андижан Акалтынского района был осмотрен дом по ул. Амира Темура, принадлежащий гражданину Д. Ш. В хозяйственной пристройке в алюминиевом казане обнаружено вещество растительного происхождения с характерным запахом, имеющее признаки наркотического средства. Кроме того, возле расположенного рядом тандыра – под пеноблоком – сотрудники обнаружили бумажный сверток с высушенным веществом растительного происхождения зеленого цвета со специфическим запахом. Вещества, предположительно являющиеся наркотическими, были изъяты в присутствии понятых для направления на экспертизу. Согласно первому заключению судебной химической экспертизы, изъятое является обжаренной в масле марихуаной массой 2,09 грамма.

В соответствии со вторым заключением, содержащее вещество – марихуана массой 0,58 грамма.

В рамках аналогичного мероприятия возле футбольного поля был остановлен гражданин А. Б. В ходе личного досмотра в присутствии понятых в правом кармане его одежды был обнаружен бумажный сверток с высушенным веществом растительного происхождения зеленого цвета со специфическим запахом, а также самодельное приспособление для его употребления. Экспертиза показала, что изъятое вещество является наркотическим средством – марихуаной, масса которой составила 1,3 грамма.

По выявленным фактам в отношении указанных граждан приняты меры согласно законодательству Узбекистана. Мероприятия в данном направлении продолжают.

Умрзок ГАФФОРОВ,
Сырдарьинская область.

Safety and public well-being

PROTECTION – A SHARED RESPONSIBILITY

From July 1 to August 15, our country conducted the second stage of the «Safe and healthy country» operational and preventive campaign, covering a wide range of areas, including public order, road safety, combating drug-related and organised crime, cybersecurity, migration and other areas.

During the campaign, 2,140 wanted persons were detained and more than 1,500 missing persons were found. Nearly 3,700 operational measures were carried out, resulting in the seizure of narcotic drugs and psychotropic substances from illegal circulation.

Some 3,600 criminal cases and more than 43,400 administrative offences related to organised crime and other dangerous incidents were identified. In addition, 55 corruption-related criminal cases and 2,324 administrative offences were uncovered.

In the area of cybersecurity, more than 430 cybercrimes were detected, while nearly 177,500 awareness-raising meetings were held among the public. More than 38,000 protection orders were issued to prevent domestic violence.

To improve road safety, more than 75,000 road signs and nearly 700 traffic lights were installed. Within the probation system, more than 447,000 individuals under supervision were assessed, and 8,350 people were granted early conditional release.

As part of the introduction of modern technologies, 27,185 video surveillance cameras were inspected, while nearly 8,700 new cameras were installed.

The results of the campaign once again demonstrated that ensuring safety is not solely the responsibility of law enforcement agencies, but a shared responsibility of every citizen. After all, a safe country is one where every person feels protected and at peace.



A child's achievement

«DAD, I GOT INTO UNIVERSITY!»

August is an exciting time for applicants and their parents. This year, it became an unforgettable period for the family of Ikrom Rajabov, a sergeant and inspector of the Patrol service battalion of the Public safety department of the Road safety service of the DIA of Surkhondaryo region.

Ikrom Rajabov's son, Shokhrukh, successfully graduated from the University of World Economy and Diplomacy. Following in her brother's footsteps, his sister Mehribonu also applied to the same prestigious university. Despite the intense competition, she did not give up on her dream.

After the test results were announced, Shokhrukh and Mehribonu decided to surprise their father. Shokhrukh called his father and told

him that Mehribonu had not been admitted. Seeing his daughter upset when they came to him while he was on duty, Ikrom Rajabov comforted her with affection.

Then Mehribonu smiled and said: «Dad, don't cry. I got into the University of World Economy and Diplomacy on a state grant!»

The news brought tears of joy to her father's eyes. He embraced his daughter and said, «Thank you, my daughter!» The touching moment was captured on video and quickly spread across social media, receiving warm reactions from thousands of people.

Ikrom Rajabov's 25 years of dedicated service and the education and upbringing he provided for his children have borne fruit. According to him, the opportunities created for his children's education, as well as the recommendation letter provided by the leadership of the internal affairs bodies, played an important role in Mehribonu's admission.

Indeed, true happiness is seeing one's children live up to their parents' trust and grow into worthy members of society who are ready to serve their country and people.



New generation of leadership personnel

SERVING IN THE INTERESTS OF THE PEOPLE

A ceremonial event dedicated to the deployment of officers who graduated from the master's programme of the Academy of the Ministry of Internal Affairs to practical service was held at the Academy. Representatives of the Legislative chamber of the Oliy Majlis, the General prosecutor's office, the Ministries of Internal Affairs and Defence, the National Guard, as well as professors and teachers of the Academy took part in the event.

Speaking at the ceremony, Minister of Internal Affairs lieutenant general Aziz Tashpulatov emphasised that improving the system in line with modern requirements and enhancing the potential of leadership personnel are important priorities.

In 2022–2026, 475 trainees graduated from the Academy's master's programme. They were trained in the areas of «Organisational-strategic management», «Organisational-tactical management» and «Scientific-pedagogical activity».

According to colonel Bahrom Saidov, head of the Master's programme, the educational process covers such important areas as



modern management, information analysis, digitalisation, artificial intelligence and crisis management. The trainees also gained practical experience through training at Tashkent University of Information Technologies, IT Park, exercises at the Chirchiq training ground, and foreign study visits.

At the end of the ceremony, 95 graduates who successfully completed the master's programme were presented with diplomas and badges.

The minister called on the graduates to justify the trust of the President and the people and to serve with an awareness that behind every citizen's appeal lies a person's destiny. The new leaders will now contribute to implementing reforms at the local level and ensuring peace, stability and justice.

Those around us

THE LIFE LESSONS OF AN 80-YEAR-OLD WOMAN

Social media is increasingly filled with «motivators» who teach the secrets of success and happiness. Yet there are people among us whose ordinary lives themselves serve as a great source of inspiration. 80-year-old Sonya Khasanova, who lives in Zomin district, is one of them.

Recently, she amazed many people by performing a 100-meter bungee jump. Sonya Khasanova worked as a schoolteacher for nearly 30 years, educating and raising hundreds of students. In her youth, she drove combines and tractors, harvested grain and ploughed fields. Sewing is also one of her favourite activities.

Even today, she does whatever she can herself rather than asking others to do it for her. The words «I'm tired», «I can't do it» and «I'm too old» have no place in her vocabulary. After her extreme jump, she launched an Instagram page, where her videos have received thousands and even millions of views.

Rather than giving young people advice, Sonya Khasanova inspires them through her own way of life. Every morning, she rides a bicycle around the district centre and remains physically active. Her philosophy is simple: do not give in to despair, work hard and love life.

The 80-year-old woman reminded us of one truth: it is not age but



one's mindset that makes a person old. True success lies in hard work, staying active, having pure intentions and appreciating life.

After meeting Sonya, we were reminded of the wise words of another elderly woman: «Why would someone who works hard, values those around them and lives with gratitude to the Creator need a psychologist?» Indeed, sometimes the greatest motivation is a person's own life.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Dolzarb mavzu

QOIDABUZARLIK «MODA»MI?

yoxud
mashinangiz bor, mas'uliyat-chi

Uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil qiluvchi avtotransport vositalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangani bor gap. Shaxsiy mashinalarning qulayligini his qilgan har bir kishi bunday imkoniyatni o'zi va yaqinlari uchun yaratishga harakat qilishi ham tabiiy. Shu bois bugun nafaqat katta shaharlarda, balki chekka qishloqlarimizda ham avtomobillar soni keskin ortganini ko'rib turibmiz. Biroq bu jarayonning boshqa, o'ta tashvishli va xavotirli tomoni ham borki, unga bee'tibor qarashning iloji yo'q.



AXTARGANGA BAHONA TAYYOR

Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda yo'l harakati qoidalarini qo'pol tarzda buzayotgan «qahramonlar»ning videolari keng jamoatchilik o'rtasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Xususan, Andijon viloyatining Asaka tumanida YHXB xodimlari o'tkazgan reytda fuqaro shaxsiy «Spark» avtomashinasi boshqaruvini 4-sinfda o'qiydigan o'g'liga topshirib, o'zi orqa o'rindiqda kelayotgani aniqlandi. Ustiga-ustak ushbu holatga tegishli videoda

ham xavfqa qo'yganini his qildimikan?

Yoki bo'lmasa, Surxondaryoda 15 yoshli o'smir katta yo'lda ota-onasidan yashirinchamashina haydab ketayotganida YPX xodimi tomonidan to'xtatilganini olaylik. Biroq u xatosini tushunish o'rniga, «Dadam uradi, bir marta qo'yib yuboring...», deb xodimni mashinaga ilib olgancha qochib ketgani-chi? Haydovchilik guvohnomasi yo'q, tajribasiz bolaning bu xatti-harakati fojia bilan tugashi mumkinligi haqida o'ylashning o'zi odamda vahima uyg'otadi.

«Izlagan imkon, axtargan bahona topadi», – deganlaridek, yuqoridagi holatlarda qoidabuzarlar o'z qilmishiga turli vajlar bilan «oqlovchi yechim» topishga urinadi. Ming afsuski, ularning ko'zida ham, so'zida ham pushaymonlik yoki qat'iy xulosa chiqarish alomatlari u qadar sezilmaydi. Bunday kezlarda beixtiyor tilingizda: «Qoidabuzarlik modaga aylandimikan?» degan achchiq savol aylanadi. Vaholanki, bu kabi mudhish holatlarning oldini olish uchun insonda biroz hushyorlik, katta-yu kichikda esa mas'uliyat hissi bo'lsa kifoya edi.

son jabrlangan. Bu raqamlar ortida, istaymizmi yo'qmi, sovuq temir bo'laklari emas, balki insonlar taqdiri, salomatligi va hayoti yotibdi. O'lim bilan bog'liq og'ir holatlarni esa alohida bir dard bilan tilga olish mumkin.

Qayerda va kim bo'lishidan qat'i nazar, yo'lda ro'y bergan biror ko'ngilsizlik qulog'imizga chalinib qolsa, darhol: «O'zi yaxshimi, mashina – temir, topiladi», – deb so'raymiz. Bu qisqa so'roq ortida inson hayotining naqadar qadrli ekanligini his qilish, yaqinimiz sog'-salomat ekanidan yengil tin olish turadi. Chunki mashinaning biror joyi buzilsa yoki pacha bo'lsa – ta'mirlanadi, u ham bo'lmasa metallolomga topshiriladi.

Ammo YTH tufayli yuz bergan ko'ngilsizliklar oqibatida orttirilgan nogironlik, eng yomoni, bevaqt o'lim – hech qachon qo'l siltaydigan yoki ortga qaytarib bo'ladigan holat emas. Afsuski, ayrimlar hali ham shu oddiy haqiqatni anglab yetmagan ko'rinadi. Aks holda katta yo'llarda rulda o'tirgan «qahramonlar» bir-biridan o'rnak olib, bugungidek ko'paymagan, keng jamoatchilikda haqli norozilik uyg'otmagan bo'lardi.

KO'CHA – HAMMAMIZNIKI, BIROQ...

Yo'llarda har kuni yuzlab belgilar va xavfsizlik shiorlariga ko'zimiz tushadi.

Ammo ko'pchilik bu qoidalarga hayoti kafolati sifatida emas, faqat YPX xodimini ko'rgandagina amal qilindigan majburiyat sifatida qaraydi. Qolaversa, soha xodimlarini ko'rganida yo'ldagi tartib-qoida, oddiygina xavfsizlik kamarini taqish esiga tushib qoladigan haydovchilar ham yo'q emas.

Unutmaslik kerakki, ko'cha faqatgina rulda o'tirgan haydovchilargagina tegishli emas. Unda piyodalarning ham, velosiped va mototsiklda harakatlana-yotganlarning ham qonuniy haqqi bor.

XULOSA O'RNIDA

Mashina boshqarish – bu shunchaki manzilga yetib olish vositasi emas, balki kezi kelganda muhim javobgarlikdir. Bir lahzalik e'tiborsizlik, qoidalarga bepisandlikning oqibatlariga kafolat yo'q. Soniyalik xohishlar bilan buzilgan qoidalar uchun huquqiy baho berilishi muqarrar, ammo buning badalini inson hayoti bilan to'lash haqida ham jiddiy o'ylashimiz kerak. Toki, mashina ruliga o'tirganda mas'uliyatni his etib, yo'llarni xavfli maydonga emas, o'zaro hurmat va omonlik maskaniga aylantirsak, u hamisha bexatar bo'ladi.

**Gulnoza
TURG'UNBOYEVA,**
o'z muxbirimiz.



«yosh haydovchi»ning yon o'rindig'ida 3–4 yoshdagi bola o'tirib kelgani ham ta'kidlanadi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Ota bu «xotirjam»ligi bilan o'z farzandining hayotini ham, boshqalarning xavfsizligini

Yana bir holat – Chirchiqdagi YPX inspektoridan qochgan mast haydovchining «Man se-e-e-kin haydadim, bo'lmasam yetolmasdi» degan jumlasini qaysi mantiq yoki vaj bilan oqlab bo'ladi?

TEMIR TOPIлади, INSON-CHI?

Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda 2 286 ta yo'l-transport hodisasi qayd etilib, ularda 3 306 nafar in-



Oramizdagi odamlar

80 YOSHLI ONAXONNING HAYOT HAQIQATI

muvaffaqiyat – mehnatda, harakatda



Ijtimoiy tarmoqlarda millionlab obunachilarga ega «motivator»lar ko'paygani rost. Kimdir tez boy bo'lish haqida gapirsa, kimdir muvaffaqiyat sirlarini o'rgatadi. Ammo oramizda shunday insonlar ham borki, ularning oddiy bir kunining o'zi – eng kuchli motivatsiya.

Zomin tumanida istiqomat qiluvchi 80 yoshli Sonya Hasanova ana shunday yurtdoshlarimizdan biri. Yaqinda u 100 metr balandlikdan «jumping»da sakrab, barchani hayratda qoldirdi. Bu onaxon kim, uni shunday ekstremal sinovni qo'rqmasdan bajarishga nima undadi? Shu kabi savollar bizni onaxonning xonadoniga yetakladi.

Sonya Hasanova qariyb 30 yil maktabda o'qituvchilik qilib, yuzlab shogirdlarga ta'lim-tarbiya berdi. Yoshligida kombayn va traktor haydab, g'alla o'rindi, yer haydadi. Tikuvchilik esa uning sevimli mashg'uloti. Eng muhimi, qo'lidan keladigan ishni bugun ham hech kimga buyurmay, o'zi bajaradi. Onaxonning lug'atida «charchadim»,

«qo'limdan kelmaydi», «yoshim o'tdi» degan jumlar yo'q. Nolish, tushkunlik va bahona unga mutlaqo begona.

Ekstremal sakrashi orqali tanilgach, u yaqinda o'z Instagram sahifasini ochdi. Qisqa vaqt ichida uning videolari minglab, hatto millionlab marta ko'rildi. Chunki u hashamatli emas, mazmunli hayot haqida so'zlaydi. Nasihat o'qimaydi. Yashash tarzi bilan ibrat bo'ladi. Masalan, har tong tuman markazidagi xiyobonda velosipedda sayr qiladi, toqqa chiqish yoki baland zinlardan ko'tarilish unga pisand emas. O'zining aytishicha, qon bosimi oshsa ham do'xtirga chopmaydi, kiyiko'ti damlamasi bilan davolanadi.

Bugun nafaqat yoshlar, balki kattalar ham soatlab ekranga tikilib qolmoqda.



Bu holat asta-sekin «ijtimoiy tarmoq kasalligi»ga aylandi. Virtual olam insonni harakatdan uzoqlashtiradi, vaqt qadrini yo'qotadi va eng yomoni – haqiqiy hayotni xiralashtiradi. Sonya Hasanovaning turmush tarzi esa bu kasallikka qarshi eng kuchli davo, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

80 yoshli onaxon bizga muhim bir haqiqatni eslatdi: insonni yoshi emas, fikri qaritadi. Har qanday yoshda sog'lom va tetik bo'lish insonning ichki dunyosi hamda dunyoqarashiga bog'liq. Haqiqiy muvaffaqiyat – mehnatda, harakatda, pok niyatda toza havo va hayotni sevishta.

Sonya buvi huzuridan qaytar ekanmiz, psixolog dugonam aytib bergan bir voqea yodimga tushdi. Qishloqqa borganida bir nuroniy onaxon undan kasbi va vazifasi nimadan iboratligini so'raydi. Javobni eshitgach, ajablanib shunday debdi: «Tavba, mehnat qilgan, atrofdagilarni qadrlagan, Yaratganga shukronalik bilan yashagan odamga psixologning nima keragi bor?...»

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

To'yxat o'rnida

T O'QSONGA UTASHGAN AQDIR

Hayotda shunday kishilar borki, ularning hayot yo'li va bukilmis irodasi haqiqiy ibrat maktabi. 1936-yilning 22-avgustida Toshkent shahrida tavallud topgan Nizomiddin aka ana shunday umr sohibi.

O'rta maktab ostonasidan katta hayotga qadam qo'yan qahramonimiz yigitlik burchini o'tash uchun olis Rossiyaning Feodosiya shahridagi harbiy dengiz flotiga yo'l oldi. Moviy dengizning shiddatli to'lqinlari bilan yuzma-yuz kechgan to'rt yillik xizmat uni tobladi

va qalbida bukilmis qat'iyatni shakllantirdi.

Harbiyda toblangan o'g'lon Toshkentga qaytib, taqdirini el osoyishtaligini saqlashdek mas'uliyatli soha bilan bog'lashga ahd qildi. Poytaxtdagi o'rta-maxsus militsiya maktabini muvaffaqiyatli



tamomlab, ilk amaliy mahorat va tajriba saboqlarini Toshkent viloyati IIB YHNB yo'l harakati nazorat inspektori bo'lib xizmat qilgan yillarda oldi. Kasbiy mahoratini uzluksiz oshirishga bo'lgan kuchli intilish hamda yuksak mas'uliyat tuyg'usi uni IIV oliy maktabiga yetakladi va huquqshunos mutaxassisligini egalladi.

1968-yildan IIV Harakat xavfsizligi bosh boshqarmasida faoliyat yuritishni boshlagan N. Shamshidinov keyingi 14 yil davomida yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, og'ir yo'l-transport hodisalarining oldini olishda, haydovchilar va piyodalar bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda faol ishtirok etib, o'z ishining fidoyi ustasi sifatida el-yurt e'tiborini qozondi.

Tajribali tashkilotchi va o'z kasbining fidoyisi bo'lgan Nizomiddin aka 1981-yilda Namangan viloyat IIB DAN xizmati boshlig'i lavozimiga ta-

yinlandi. O'sha yillarda viloyat yo'l harakati xavfsizligi tizimi murakkab davrni boshidan kechirayotgan, asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha respublikada oxirgi o'rinda edi. U o'zining boy tajribasi, yuksak tashkilotchilik mahorati va qat'iy talabchanligini ishga solib, qisqa fursat ichida xizmatni tubdan yaxshiladi. Tizimga tatbiq etilgan yangilik, o'ziga xos ish uslubi, mustahkam tartib-intizom va fidokorona xizmat natijasi o'laroq, Namangan viloyati DAN xizmati respublikada 1-o'ringa ko'tarildi. Ushbu fidoyilik e'tirof etilib, N. S h a m s h i t d i n o v g a «polkovnik» maxsus unvoni berildi hamda vazirlikning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Nizomiddin akaning sermazon faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri uning insonparvarligi va yoshlarga, shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishdagi yuksak murabbiylik mahoratidir. Ko'p yillar davomida yo'l harakati xizmati yo'nalishida faoliyat yuritgan xodim sifatida qoidabuzarlikka yo'l qo'yan fuqarolarga nisbatan yondashuvini so'raganimizda, u shunday javob berdi:

– Yo'l-patrul xizmati inspektorining nigohidan hech bir tafsilot chetda qolmasligi zarur. Ushbu yo'nalishning asl mohiyati faqat qoidabuzarlikni qayd etib, bayonnoma yozishdan iborat emas, balki haydovchiga madaniyat ulashish,

xatoni o'z vaqtida anglatib, yuz berishi mumkin bo'lgan fojيانing oldini olishdir. Biroq qo'pol qoidabuzarlik sodir etgan, ayniqsa, mast holda transport vositasini boshqarib, kayf-safoni insonlar hayotidan ustun qo'yganlarga nisbatan aslo shafqat bo'lmasligi, qonun ustuvorligi ta'minlanishi shart.

Tajribali rahbarning ichki ishlar organlaridagi sharaflari yo'li nafaqat yuksak namuna, balki haqiqiy ustozlik maktabiga aylandi. Ushbu maktabda toblangan va e'tibor topgan polkovniklar Toshxo'ja Rahmatullayev, Musaxon Oppoqov, Abduvahob Mirzaqulov kabi ko'plab el e'zozidagi shogirdlar bugun ham ustozning bebaho o'gitlari, oqilona ko'rsatmalarini cheksiz ehtirom va faxr bilan yodga olishadi.

Ichki ishlar organlarida 30 yildan ortiq fidokorona xizmat qilib, yuksak ehtirom va obro'-e'tibor qozongan iste'fodagi polkovnik Nizomiddin Shamshidinov bugungi kunda farzandlar va nevara-chevaralar ardog'ida keksalik gashtini surmoqda.

Ibratli umr yo'lining to'qsoninchi dovonida turgan muhtaram faxriymizga mustahkam sog'liq, tetiklik hamda elning duogo'yi bo'lib yurishini tilaymiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB...

O'ttiz besh yil – tarix uchun bir qadam,
Millat uchun qancha sinov, qancha vaqt.
Bu kunlarni orzu qilganmiz har dam,
O'z-o'zidan kelgani yo'q bunday baxt.

Dehqon edik – bug'doy nonga to'ymagan,
Bog'bon edik – bir choponi o'n yamoq.
Ipak olib, atlas libos kiyimagan,
Zamin qattiq edi, osmonlar yiroq.

Ona tilim, bo'g'zimdagi bo'z edi,
Zabonlarga kishan solgan zamonlar.
Til uchida titrab turgan so'z edi,
Istiqlolim berdi davr-u davronlar.

Otalarining zahmatidan shuhrat-shon,
Onalarining duosidan kuch, najot.
Buyuklikka yo'llar ekan har bir tong,
Har yurakda uyg'onar bir jasorat.

«Qadr» so'zin qadri baland, qadrli,
El-u xalqning roziligi – saodat.
Bir yilimiz bir asrga tatirli,
Chunki hayot tarozusi – adolat.

Sport nomi bilan kirding maydonga,
Yangi O'zbekiston, dovruq'ing yangi.
Noming doston bo'lib ketdi jahonga,
Takror yangraganda g'alaba bongi.

Buyuk bobolarim ruhin etdi shod,
Shoshda bunyod bo'lgan ma'rifiy makon.
Buxoriy majmui ham bo'ldi obod,
Yurtim chor tarafdin kutmoqda mehmon.

Buyuk ezgulikka oshyon bu zamin,
Do'stlik, tinchlik ruhi bunda kelar duch.
Baxt bilan olamiz kishilik g'amin,
Do'stlar umid uchun bizdan olar kuch.

Muhabbating bilan qudratga to'lib,
Shoningni dunyoga biz taratamiz.
Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib,
Yangi hayot va kelajak yaratamiz!

BUNDAY ELNI QAYDAN TOPASAN...

Ey qaldirg'och, qayga shoshasan,
Chug'uraysan, nedan xafasan?
Ayvoniga in solgan qushni
Kutgan elni qaydan topasan?

Iningdan xas tushsa avaylab,
O'z o'rniga qo'yadi joylab.
Polaponi uchishin poylab
Turgan elni qaydan topasan?

Bu bir elki, bag'ri keng – hotam,
Yetti o'lchab tashlaydi qadam,
Bo'ylasa ham dil uyiga g'am,
Kulgan elni qaydan topasan?



Kelmay qolsa uyiga mehmon,
Joni halak, yugurar har yon,
Qush sayrasa, tunda turib non
Yopgan elni qaydan topasan?

O'nta bo'lsa – o'rni bo'lak, deb,
Bir kun bo'lar menga tirgak, deb,
El tinchiga o'g'lon kerak, deb
Tuqqan elni qaydan topasan?

Bahor kelsa elni so'roqlab,
Omonlik deb, uyini oqlab,
Bir chechakni ko'ziga yig'lab
Surtgan elni qaydan topasan?

Hol so'rasang, non tutar dehqon,
So'zlamagan umrida yolg'on.
Yer kindigin uzarga imkon
Topgan elni qaydan topasan?

Har bolaga – bittadan makon,
Mehnat qilib topar baxt va shon.
O'zi terak ekib, o'zi tom
Yopgan elni qaydan topasan?

Quzg'unga ham qo'ymaydi tuzoq,
Bir xatosin o'ylaydi uzoq,
Qo'shni o'tsa, qirq kunlab chiroq
Yoqqan elni qaydan topasan?

Ey qaldirg'och, shoshqaloq sanam,
Ketma, qorlar yog'sa nima g'am,
Qush iniga tunda yoqib sham
Tutgan elni qaydan topasan?

Bunday elni qaydan topasan...

ANDIJON

Men senga shoshaman, sen yo'l kutasan,
Men dovon oshaman, sen gul tutasan.
Men ham talpinaman, sen ham sog'inib,
Kechiksam bolam, deb, zaqqum yutasan,
Onamga o'xshaysan, jonim Andijon.

Tuprog'ingda unib, kaftingda o'sdim,
Oftobim, erkalab taftingda o'sdim.
Ildizim joningga, qoningga tutash,
Sening shon-shavkating, shaxdingda o'sdim,
Otamga o'xshaysan, jonim Andijon.

Mingtepang qadimdir, shoni ulug'vor,
Ershi, Davoning ham ming yillik asror.
Tabarruk tuprog'ing gardi mukarram,
O, Mohlaroyimdek ko'nglimda kibor,
Og'amga o'xshaysan, jonim Andijon.

Kimlardir kuydirdi, kimdir gul ekdi,
Kim mador, kim sarvdek qaddingni bukdi.
Sher Boburni yurtdan bezitgan olchoq,
Yurt degan erlarning qonini to'kdi,
Nolamga o'xshaysan, jonim Andijon.

Dalvarzin qirlari asrdan sado,
Jasur o'g'lonlaring, tan oldi dunyo.
Sen mard-u maydonlar beshigi, koni,
Hanuz Cho'lponingdan taralmish ziyo,
Bobomga o'xshaysan, jonim Andijon.

Ey, ko'nglim gavhari, gullagan bo'ston,
Temir tulporlaring tillarda doston.
Zahmatkash xalqing bor, guldin tuprog'ing,
Ey, azim diyorim, dilbar, navqiron,
Bolamga o'xshaysan, jonim Andijon.



Munavvara USMONOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi,
shoira

KELDIM, DEGIN!

Bolam, kelsang qay mahal,
Ko'zim yo'lingga mahtal,
Qoshimga kelib har gal,
Ona, men keldim, degin!

Kechiksang tundan so'rab,
Holingni kundan so'rab,
Turarman yo'ling poylab,
Ona, men keldim, degin!

Topgan noning kerakmas,
Mansab, shoning kerakmas,
Joning omon bo'lsa bas,
Ona, men keldim, degin!

Do'stmi yo dushman qalam,
Bilmayin dilda alam,
Yurak uxlamas, bolam,
Ona, men keldim, degin!

Gado qildi bu hijron,
Yo'limni to'sar dovon,
Yengmasin desang armon,
Ona, men keldim, degin!

Ko'rmagin hech yomon kun,
Baxtingni ko'ray butun,
Yuragimga bo'l ustun,
Ona, men keldim, degin!

Yaqinlashib qoldi kuz,
Ko'ksimda bir hovuch tuz,
Mador bo'lar bitta so'z,
Ona, men keldim, degin!

Umr – o'tkinchi shamol,
Bir kun qaddim bo'lar dol,
Shunda ham kelmay malol,
Ona, men keldim, degin!

Tildan qolsam, so'zim bo'l,
Nuri ketsa, ko'zim bo'l,
Ortda qolar izim bo'l,
Ona, men keldim, degin!

Kelsa aytar kun vido,
Qismat aylasa judo,
Boshimda aylab duo,
Mana, men, keldim, degin!..

Yana men, kelgum, degin!
Ona, men keldim, degin!

FOYDALI VA MAROQLI HORDIQ

Kuni kecha Bo'stonliq tumanidagi «Orient village» dam olish maskanida yuzdan ortiq ichki ishlar organlari xodimlari xizmat vazifalaridan vaqtincha chekinib, foydali va maroqli dam olishdi.



IIV Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan uyushtirilgan ushbu tadbir xodimlarning ma'naviy hordiq chiqarishi bilan birga, ularning jismoniy faolligini oshirish va o'zaro sport musobaqalarida bellashishlariga qaratildi.

Maskanda tashkil etilgan qizg'in timbiling va turli jamoaviy sport o'yinlarida xodimlar o'zaro bahslashib, jamoaviy birdamlikni namoyish etishdi. Shuningdek, yopiq hamda ochiq suv havzalari, bouling kabi harakatli musobaqalar ishtirokchilarga jismoniy tetiklik bag'ishladi. Musaffo havo, shinam xonalar, mazali sharqona va yevropa taomlari bilan birgalikdagi bu kabi faol sport tadbirlari xodimlarga unutilmas taassurotlar ulashib, ish jarayoniga yangi kuch va g'ayrat bilan qaytishlarini ta'minladi.

O'z muxbirimiz.

BILARMIDINGIZ...

Aslida Ronaldu – bu familiya emas, balki ikkinchi ism. U Krishtianuga AQSH-ning sobiq prezidenti, ilgari aktyor bo'lgan Ronald Reygan sharafiga berilgan. Futbolchining otasi u ishtirok etgan filmlarni juda yaxshi ko'rgan. Krishtianu Ronaldu – qo'shaloq ism bo'lib, futbol yulduzining to'liq ism-sharifi – Krishtianu Ronaldu dush Santush Aveyr.



Xokkeychilarning 64 foizi o'z faoliyati davomida kamida bitta tishidan ayrilar ekan.



INTIL, KURASH VA G'OLIB BO'LI!

Guliston tumanida o'tkazilgan sohil voleyboli bo'yicha Sirdaryo viloyati IIB boshlig'i kubogi musobaqalari ana shu shior ostida bo'lib o'tdi. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish uchun o'ziga xos platforma vazifasini o'tagan ushbu musobaqada viloyatning barcha tuman va shahar bosqichlari g'oliblari o'zaro bellashdi.

Guliston tumanining «Chortoq» mahallasidagi sport mujmuasi tuman-shaharlardan kelgan ellikdan ortiq yoshlarni o'z bag'riga jamladi. Jo'shqin, o'z kuchiga ishongan, g'oliblikka chanqoq yoshlar nisbatan yangi yo'nalish bo'lgan sohil voleybolining nozik jihatlari yaxshi o'zlashtirganliklarini namoyish etishdi.

E'tiborlisi, mazkur sport maydoni viloyat IIB boshlig'ining yoshlar bilan uchrashuvda bildirilgan takliflar asosida barpo etilgan edi. Bugungi kunda ushbu maskan mahalla yoshlari uchun sport bilan muntazam shug'ullanish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish uchun xizmat qilmoqda.

Musobaqa yakuniga ko'ra, faxrli uchinchi o'rin Sirdaryo tumani yoshlariga nasib etdi. Hal qiluvchi final bahsida esa Sayxunobod va Guliston tumani jamoalari o'zaro kuch sinashdi. Murosasiz va qiziqarli kechgan uchrashuvda Guliston tumani yoshlari musobaqaning bosh sovrinini qo'lga kiritishdi.



– Ushbu musobaqa viloyatdagi har bir yoshga ichki ishlar organlari tomonidan e'tibor qaratilayotgani, har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganining o'ziga xos namoyishidir, – deydi Guliston tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Xurshid Muqimov. – Jumladan, Guliston tumanida ham yoshlarning bandligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga yo'naltirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar bir kun ham to'xtagani yo'q.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlarga viloyat IIB kubogi, diplom, medal hamda esdalik sovg'alari tantanali tarzda topshirildi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

1976-yil 20-mart kuni «Aston Villa» va «Lester City» o'rtasidagi futbol bahsi kulgili natija bilan yodda qoldi. Unda «Aston Villa» o'yinchisi Kris Nikoll oz emas, ko'p emas, naqd to'rtta to'p kiritdi – raqib darvozasiga ikkita va o'z darvozasiga ikkita. O'yin 2:2 hisobida yakunlandi.



Shaxmatning dastlabki o'nta yurishida 170 000 000 000 000 000 000 000 000 (oktillion)ta o'ynash usuli mavjud ekan...



DIQQAT: E'LON!

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi «Texnik servis ko'rsatish ofisi» davlat muassasasi erkin yollangan bo'sh lavozimlarga oliy va o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan yetuk malakali mutaxassislarni tanlov asosida ishga taklif etadi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati bo'yicha tanlov har haftaning seshanba va payshanba kunlari soat 10:00dan 16:00gacha quyidagi manzilda o'tkaziladi:

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, O'sh 1-tor ko'chasi, 1-uy.

Batafsil ma'lumot uchun:

(97) 404-12-74
(99) 037-85-78
(71) 209-98-25

Hududiy bo'linmalarda tanlov haftaning dushanba – juma kunlari soat 10:00dan 16:00gacha «Texnik servis ko'rsatish ofisi» davlat muassasasining Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar bo'yicha hududiy bo'linmalari tomonidan o'tkaziladi.

Batafsil ma'lumot uchun:

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'linmasi	(97) 240-01-10
Andijon viloyati bo'linmasi	(93) 414-77-47
Buxoro viloyati bo'linmasi	(93) 451-14-49
Jizzax viloyati bo'linmasi	(99) 155-02-10
Navoiy viloyati bo'linmasi	(99) 194-47-76
Namangan viloyati bo'linmasi	(93) 264-50-05
Samarqand viloyati bo'linmasi	(93) 999-00-65
Sirdaryo viloyati bo'linmasi	(98) 800-20-68
Qashqadaryo viloyati bo'linmasi	(90) 720-07-70
Farg'ona viloyati bo'linmasi	(97) 504-40-06

Salomatlik

TONGNI ILIQ SUV BILAN BOSHLANG

Ertalab nonushtadan 20–30 daqiqa oldin och qoringa iliq suv ichganingizda, tananing ichki olamida ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Bo'sh oshqozonga tushgan suv ichaklarning hech qanday stressiz va «xotirjam» uyg'onishini rag'batlantiradi. Iliqlik qon aylanishi yaxshilanib, to'qimalarning uyg'onishiga yordam beradi va oshqozonni ovqat hazm qilishga tayyorlaydi. Iliq suv oshqozon va ichaklarni yumshatib, ularga



kun davomida o'z faoliyatini yaxshi bajarishiga yordam beradi, natijada metabolism tezlashadi. Ovqat hazmi barqaror bo'ladi.

NOK OZISHGA YORDAM BERADI

Bu meva vazn tashlash niyatida bo'lganlar uchun ajoyib tanlovdir. U past kaloriyalik bo'lib, to'yinganlikni ta'minlaydigan tolaga boy. Ushbu meva 80 foiz suvdan iborat, shu bois chanqoqni bosish xususiyatiga ega. Meva tarkibidagi kletchatka ovqat hazmini yengillashti-



radi, uzoq vaqt to'qlik hissini beradi va ortiqcha tanovulning oldini oladi.

Bundan tashqari, nokda minerallar, C va B6 vitaminlari hamda antioksidantlar mavjud. Ular immunitetni mustahkamlab, qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi va terining sog'lom bo'lishiga yordam beradi.

SHAKAR ISTE'MOLI ME'YORDAN OSHMASIN

Qand yoki shakar immun tizimiga salbiy ta'sir qiladi, shu bilan birga, ozuqaviy mahsulotlarga allergik ta'sirni keltirib chiqaradi. Ortiqcha iste'mol natijasida semirish va diabet kasalligi yuzaga kelishi mumkin. Iste'molda shakar miqdorini kamaytirish bosh og'rig'i, osteoporoz, katarakta, asabiylashish va DNK tizimining shikastlanishi bilan



bog'liq boshqa kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Parhezshunoslar kuniga 6–8 choy qoshiq shakar iste'mol qilish inson uchun me'yor ekanligini ta'kidlashadi. Ammo kunda yeyiladigan pechenye, shokolad, shirinliklar ham shu hisobga kirishi kerak. Shu o'rinda aytib o'tish joiz, asal, meva va sabzavotlar tarkibidagi qand tabiiy bo'lgani bois inson uchun juda foydalidir.

TANQISLIK NIMALARGA SABAB BO'LADI?

D vitamini – immunitetning pasayishi, soch to'kilishi, vazn bilan bog'liq muammolar, suyak va mushaklarda og'riq, surunkali charchoq, suyaklar mo'rtlashishi.



Omega-3 – teri qurishi, ko'rish qobiliyatining susayishi, tovonda yoriqlar paydo bo'lishi, diqqatning buzilishi, bo'g'imlarda og'riq.

C vitamini – milklar va burun qonashi, ko'karishlar, tez-tez shamolash, teri qurishi.

Temir – soch to'kilishi, tirnoqlar sinuvchanligi, O'RVI, kuch-quvvatdan qolish, oyoq-qo'llar muzlashi.

B guruhi vitaminlari – teri qurishi va yallig'lanishi, og'iz burchaklarining yorilishi, depressiya, kayfiyat tushishi, quloqlarda shovqin, uyqusizlik.

Magniy – uyqusizlik, mushaklarda spazm, shirinlikka moyillik, bosh og'rig'i, serzardalik.

XOTIRANI MUSTAHKAMLOVCHI MAHSULOT

Qovurilgan va tuzsiz veryong'oqni po'sti bilan har kuni iste'mol qilish xotirani, miya faoliyatini va qon aylanishini yaxshilaydi. Qon bosimi me'yorda bo'ladi, bu esa mazkur mahsulotning tomirlar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

Gap shundaki, veryong'oq arginin, to'yinmagan yog'lar va antioksidantlarga boy, qizil yupqa po'stida esa foydali tolalar mavjud. Bularning barchasi qon tomirlarining sog'lom bo'lishiga xizmat qilib, miyaga ko'proq kislorod yetib borishiga yordam beradi.



Olimlarning fikricha, hatto ovqatlanish ratsionidagi kichik o'zgarishlar ham, masalan, kuniga bir hovuch veryong'oq iste'mol qilish yoshga doir xotira yo'qolishining oldini olishi mumkin.

Bekajon maslahati

AN'ANAVIY USLUB VA ZAMONAVIY NAFOSAT UYG'UNLIGI

Ayollar kiyimlari orasida nimcha o'zining nafisligi, qulayligi va universaligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu model an'anaviy bichim va zamonaviy uslubni o'zida mujassam etgan bo'lib, kiyimga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. Aniq o'lchamlar asosida tayyorlangan andoza esa nimchaning gavdaga mos va chiroyli bo'lishini ta'minlaydi.



KO'NGLINGIZ TUSAYAPTIMI?

Ushbu tabiiy, foydali va mutlaqo shakarsiz koptokchalarni tayyorlab ko'ring.

Shirinlikdan bahramand bo'lish uchun doimo shakardan foydalanish shart emas. Tabiatning o'zi bizga shirin va foydali ne'matlarni in'om etgan. Xurmo va turshakning tabiiy shirinligi, yong'oqning to'yimliligi hamda kakaoning xushbo'y ta'mi birlashib, shakar qo'shilmagan ajoyib desertni hosil qiladi. Oddiy va tabiiy mahsulotlardan tayyorlanadigan bu shirinlik ham mazasi, ham tarkibi bilan e'tiborga loyiq.

TAROZI VA O'LCHOV IDISHISIZ MAHSULOTLARNING MIQDORINI QANDAY BILISH MUMKIN

Eslatma: ko'rsatilgan miqdorlar mahsulotning zichligi va o'lchov idishining hajmiga qarab biron farq qilishi mumkin.

O'lchov	Suyuqlik	Tuz	Soda	Shakar	Un
1 choy qoshiq	5 ml	10 g	8 g	6 g	5 g
1 osh qoshiq	15 ml	30 g	28 g	25 g	20 g
1 stakan	250 ml	260 g	160 g	200 g	160 g



PISHIRISH JARAYONIDA...

Guruch: biroz limon kislotasidan qo'shing. Guruch oppoq va sochma bo'lib pishadi, donlari bir-biriga yopishib qolmaydi.

Dukkakli ekinlar (mosh, loviya, no'xat): ozgina ichimlik sodasi qo'shing. Bu ularning tezroq pishishi va oshqozonda yengil hazm bo'lishiga xizmat qiladi.

Makaron mahsulotlari: bir osh qoshiq o'simlik yog'i makaronlar pishgandan keyin bir-biriga yopishib qolishining oldini oladi.

Tuxum: suvga bir choy qoshiq sirka solish tuxum pishgandan so'ng po'chog'ini oson archishga yordam beradi.

Sahifani Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



www.youtube.com/@Postda_IIV




www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz



Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти раҳбарияти ва шахсий таркиби институт бошлиғи ўринбосари – жиноятчилик омилларини тадқиқ қилиш маркази бошлиғи, полковник Шухрат Азимга падари бузруквори

Обид отанинг вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Бир шифохонада йўл-транспорт ҳодисаси туфайли кўплаб беморлар туша бошлади. Шаҳар маъмурияти хавфсизлик камарини тақишни мажбурий қилиб қўйди. Аммо беморлар камайиш ўрнига янада кўпайиб кетди.

Савол: беморлар кўпайишига сабаб нима?

(Жумбоқнинг жавобини @PostdaUz_botra юборишингиз мумкин.)

ЖУМБОҚ



Газетамизнинг 33-сонидан чоп этилган жумбоқнинг жавоби: Алишер Навоий билимсиз табибларни таърифлашда «омий» («оми») сўзини ишлатган:

«Ҳозиқ табиби хушгўй тан ранжиға шифодур, Омийи тунди бадхўй эл жониға балодур».

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda.)

Bu qo'shiq yurakni bunchalar timdalamasa! «Anora, yetar, bas qil!..» deb baqirib yuborgisi keldi uning. Ikki-uch daqiqa oldin shovqin solayotgan olomonning birdan mahzun holga tushib, qo'shiq ohangiga tebranishi yigitni hayratga soldi.

Birdaniga tomoshabinlar o'ziga kelib, gulduros qarsaklar bilan shovqin-suron boshlab yuborishdi. Shu damda Botirning xayollari buzilib, o'ylari chilparchin bo'lib ketdi. Odamlar orasida nima qilishini bilmay, karaxt bo'lib qolgandi. Hamma olqishlardi:

– Ano-ora! Ano-ora-aa! Ano-o-ra!!!

Odamlarga qo'shilib olqishlashni o'ziga ep ko'rmadi. Borib quruq qo'l bilan tabriklashga esa jur'ati yetmadi. Hayajon ichida olomon orasidan otilib chiqdi. Uni uchratgan o'sha gulzorga borib, qiyg'os ochilib yotgan gullardan avaylab bir quchoq terdi. Uzoqroqda gazeta o'qib o'tirgan qorovul uni kuzatib turgan ekan. Chol yigitning yoniga kelib, jahl bilan gullarni qo'lidan tortib oldi. Indamasdan, ularning tikanli shoxchalarini sindira boshladi. «Obbo, – dedi Botir ichida, – aybdormanmi, aybdorman! Nima desa ham chidayman».

Qorovul gullarni qo'lidagi gazetasiga o'rab, chiroyli guldasta yasadi. «Eh, yoshlar-a!» deb xo'rsinib qo'ydi-da, yigitga uzatdi. Botir hatto rahmat aytishni ham unutilib, shiddat bilan yana ortiga qaytdi. Sahnaning etagiga yetib kelgach taqqa to'xtadi: Anorani kimlardir qurshovga olib, tergab-koyiyotgan edi. «Pastga tush, betamiz! Hammamizni sharmanda qilding-ku! – deya urishardi ular. – Yana bir marta o'rtaga chiqsang, otangga oq bo'lasan!»

Botir tush ko'rayotganday karaxt borib, guldastani Anoraga tutqazdi. Atrofga xushbo'y ifor taraldi. Yigit ayni tobda jonini tortiq qilishga ham tayyor edi.

– Rahmat! – dedi Anora, har holda uning lab harakatlari shu so'zning chamasini berardi.

«Hammasi tugadi, – deb o'yladi Botir. – Shunday bo'lgani tuzuk. Endi ajralish-sak ham bo'laveradi». Quloqlari ostida esa Anoraning charxpalakdagi gaplari jaranglard.

Ayni paytda go'yo bu bulbulnafas qizning oldida o'zi hech kim emasdek tuyuldi.

U odamlar orasidan sekin sirg'alib chiqib, ravot tomon yurdi. O'zi istamagan holda qadamlari jadallashdi. Taqdir uni kimga duchor qilganini borgan sari teranroq tushuna boshladi. Qiz – dengiz edi, u – ummon, u – dovul, u – kamalak... Bu mo'jiza uning hayotini ostin-ustun qilib tashlaydi, oyoq-qo'lini kishanlaydi, yuragini tilkalaydi, kelajagini to'zg'itib yuboradi. Ketib borarkan, shuurida ana shunday vahn ko'lanka izg'irdi.

Yo'l yursa ham mo'l yurib, Anoraning ro'parasida yana qanday paydo bo'lganini sezmay ham qoldi. Anora!.. Xuddi o'zi! Nafis oyoqlari bilan mayda qadam tashlab, tovu misol sollanib, nozlanib, u tomon mag'rur kelardi. Oy-din kechada uning qora charos ko'zlari porlab turar, yigitga sirli tikilardi.

– Qochib qolibsiz-da? – qizning ohangida na gina, na kinoya bor edi.

– O'zing shuni istaganding-ku.

– Boshqa kuylamayman, – dedi qiz aybdorona bosh egib.

– Nima uchun?! Menga juda yoqdi.

– Unda nimaga ketib qoldingiz?

– Bunchalik mashhurlicingni bilman ekanman-da.

shundan. Qizning aytishicha, yaqinlari – otasi, aka-ukalari, xullas, hamma-hamma uning qo'shiq aytishiga qarshi ekan. Endi bo'lsa Botir ham...

U qiz bilan chamasi bir oylar davomida shunday uchrashib yurdi. Odatlariga ko'ra, bu vaqt ichida bir-birlarini sinashdi. Anora o'zini sipo, andishali tutib, tobora yigitga yoqib borardi. Eng qizig'i, u shuncha vaqt ichida biror marta ham san'at haqida gap ochmadi. Gapida turdi. Shundan so'ng Botir sovg'i qo'ydi. Anoraning ota-onasi rosa hayron bo'lishibdi. Sababi, sovg'ichilar eshik qoqib, «qo'shiqchi» qizlarini so'rab kelishiga ishonishmagan ekan. Hatto ustiga-ustak: «Qizimiz dutor

Anoradan avlo emas edi. Bir kuni palata tokchasiga omonat o'tirgancha tomdan tarasha tushgandek:

– Kuylaging kelsa, kuylayver, Anora! – dedi ovozi bo'g'ilib.

Xotini javob bermay, devorga o'girilib oldi.

Tashqariga majhul yo'l olgan kuyov kiraverishda nevarasini yetaklab olgan qaynonasiga duch keldi.

– Shunday bo'lishini bilgandim. U azaldan noqisul aql edi, – deb ayol biroz yig'lab oldi.

– Unday emas. Xudo xohlasa, hali o'tib ketadi, – dedi Botir ishonch bilan uni tinchlantirishga urinib.

– Gapirsam, gap uqmaydi-ya. Xuddi esi pastdek, meni tanimayapti ham. Qanday qiz edi-ya, – deb ayol yana ayyuhannos soldi.

Qaynonasining gaplaridan Botirning ichi og'ridi, g'azabi qaynadi. Lekin lom-mim demadi. Ona ham o'z bolasini shunday malomat qiladimi, axir?! Qaynona yigitning aft-angoridan jahli chiqqanini sezdi shekilli: «Kulchaoyim, kulcha qizim mening», deya nevarasini alqab, gapni boshqa yoqqa burdi.

Botir qizchasini yetaklab xonaga qaytib kirib borganda, Anora burchakda tizzalarini quchoqlab, qunishib o'tirardi. Farzandini ko'rib, kiprik ham qoqmadi: na sevindi, na quchoq ochdi.

Nihoyat, hafsalasi pir bo'lgan do'xtirlar uyga javob berishdi.

Uyda ham ahvoli o'nnganmagan Anora qizchasi bilan qiy-chuv qilib, quvlashmachoq o'ynayotgan Botirga hissiz termilib o'tiraverardi. Bilganlar «Sabrdan sariq oltin!» deb dalda berishar, bilmaganlar esa «Shu jinnini deb yigitning umri xazon bo'ldi», deya attang qilishardi.

Botir bir kuni ularning baxtli kunlarini yodga soluvchi qadrdon buyumlarni – bari-barini xotining atrofiga jamladi. Hatto dutorni ham u yashayotgan xonaga olib kirib, taxmonga ilib qo'ydi. Erta tongda ilk bor uchrashgan o'sha gulbog'ga bordi-da, xuddi birinchi kundagidek bir quchoq gul terib, eski gazetaga chiroyli qilib o'radi.

Uyiga qaytayotganida, uzoqdan xuddi ancha yillar burun dunyodan o'tib ketgan buvisining ovozi eshitilgandek bo'ldi. «Bu ketishda naqd jinni bo'lib qolaman», – deb o'yladi yigit xavotirlanib. Yana biroz o'tib, ovoz onasining tovushiga ham o'xshab ketdi. Hammasi tanish, hammasi qadrdon... Nihoyat, topdi... Bu Anora edi! U qizchasini allalayotgan edi...

Qadamini tezlatib, hovliga shoshdi. Ostonada opasi to'sib, to'xtatdi. Ichkariga kirishga yo'l bermadi. Ko'zlarida yosh bilan ukasiga qarab, birdan quchoqlab oldi.

Yigit hammasini tushundi.

– Alla, bolam, alla-yo... Jonim bolam, alla-yo...

Ovoz xuddi ozodlikka talpinib, ko'ksini qafas simlariga urayotgan qushning nolasiga, shamol yulqiyotgan maysalarining faryodiga o'xshardi.

– Ayt, Anora! Aytaver! – dedi Botir hayajonini tiya olmay, lablari qaltirab...

Baxtiyor NURIIDIN

BULBUL SUKUTI

Hikoya



– Unchalik emas...

– Ular kim edi? – so'radi Botir boyagina sahna ortida guvohi bo'lgan o'sha noxush voqeaga ishora qilib.

– So'ramang... Yana qochdim, – dedi u ham istamaygina.

– Muxlislarining juda ko'p ekan.

– Ketmang... Yo meni ham o'zingiz bilan olib keting!..

– Unday qila olmayman.

– Nimaga?!

– Birinchidan, qonun oldida javob berishni istamayman. Ikkinchidan, o'zing bilasan, bunaqa ishlarni odatlarimiz ko'tarmaydi.

– Onam ham shunday deydi.

– Qanday?

– Sahnada kuylashim bizning oilaga to'g'ri kelmas ekan. Ajdodlarimiz orasidan hech qachon laparchilar chiqmaganmish...

– Kattalar hamisha haq, ular yaxshi bilishadi. Jahl qilma-da, ularning oldiga qayta qol!

– So'z beraman, agar siz istasangiz, boshqa hech qachon qo'shiq aytmayman.

– Keyin, baribir, attang qilsang-chi?

– Hech qachon!

Botir u bilan sayr qilib, allamahalgacha gaplashib yurdi. Anora aslida begona emas ekan. Yuqori ko'chada yashaydigan katta ammasining qo'shnisi bo'lib chiqdi. Yigit uni ilgari maktabda ko'rganman, deb o'yladi: ko'zga issiqligi

chalib, ashula aytadi. Sal qaysarligi, shaddodligi ham bor. Shuni oldindan bilib qo'yinglar», deyishibdi. Borgan sovg'ichilar esa: «Hechqisi yo'q, o'zimiz yo'lga solib olamiz», deb javob qaytarishibdi.

To'ydan keyin ham Botirning yaqinlari Anoraning biror marta na qo'shiq aytganini, na dutor chalganini ko'rishdi. Hatto uning xirgoyisini ham hech kim eshitmadi. Yil o'tib, qizaloqli bo'ldi. Chaqaloq xuddi onasining o'zginasi edi. Hamma xursand, ayniqsa, Anoraning yaqinlari quvonchdan ichiga sig'masdi.

Urf-odatlariga ko'ra, chaqaloq uchun dunyoning bor-budini uyib tashlashdi. Lekin Anoraning o'zi kundan-kunga so'nib, mung'ayib borardi. Buni avvaliga yangi tuqqan ayolning holatiga yo'yishdi, tez orada o'tib ketar, deb o'ylashdi. Ammo unday bo'lmadi.

– Anora, – derdi yalingannamo Botir. – Bolaga alla ayt, jonim, o'sha charxpalakdagi qo'shig'ingni ayt...

Kelinchak alla o'rniga ro'moli bilan og'zini berkitib, silkinib-silkinib, unsiz yig'lardi.

Bola bir yoshga yetar-yetmas, Anora yotib qoldi. Uning ruhiyatida xavotirli o'zgarishlar boshlangan edi. Shifokorlar bemorning chuqur iztirob va tushkunlikka tushganini, unga mutlaqo tinchlik kerakligini aytishardi.

Shifoxonaga ikki-uch mahal qatnab, o'zi ham ruhan toliqqan Botirning ahvoli



Ota izidan

MARG'ILONNING
EGIZAK POSBONLARI

Ba'zi insonlar nafaqat tashqi ko'rinishi, balki hayot yo'li, orzu-intilishlari va tanlagan kasbi bilan ham bir-biriga juda o'xshash bo'ladi. Qo'shtepa tumanining «Qiyqi» mahallasida tug'ilib o'sgan egizaklar – Hasanxon va Husanxon Anvarovlarni ham taqdir ana shunday baxt bilan siylagan.

Ko'p yillar yo'l-patrul xizmatida faoliyat ko'rsatgan iste'fodagi katta serjant Mirzoulug'bek Qirg'izov xonadonida kamolga yetgan egizaklar bolalikdanoq

ota kasbiga mehr qo'yishdi. Ular 2017–2021-yillarda Farg'ona davlat universitetida tahsil olib, oliy ma'lumotga ega bo'lgach, 2022-yilda ichki ishlar organla-

riga hujjat topshirishdi. Bugungi kunda Hasanxon Marg'ilon shahrining «Qirguli», Husanxon esa «Yangiobod» mahallasida profilaktika inspektori sifatida



Nazm

O'ZBEKISTONIM

O'zbekiston, mening ma'dan, konimsan,
Faxr-u iftixorim, shirin jonimsan,
Baxtimsan, iqbolim, onajonimsan,
Yurtim, Mustaqillik to'ying muborak!

Cho'lda bunyod bo'lgan shaharlaring bor,
Qishloqlaring go'yo chamanzor, gulzor,
Yuksak cho'qqilaring osmonga poydor,
Yurtim, Mustaqillik to'ying muborak!

O'zbek ekanligim – beqiyos baxtim,
Yurtga xizmat qilish – qarorim, ahdim,
O'zingsan men uchun mustahkam taxtim,
Yurtim, Mustaqillik to'ying muborak!

Ilk bora qadamim tekkan tuprog'im,
Ko'zlarimga arzir uni surtmog'im,
Ey otajon yurtim, bag'ri qaynog'im,
Yurtim, Mustaqillik to'ying muborak!

Senda qancha millat yashar jamuljam,
Bariga onasan, mehribon o'lkam,
Mehmonnavoz yurtsan dunyoda ko'rkam,
Yurtim, Mustaqillik to'ying muborak!

Quvonaman doim kamoling ko'rib,
Misli jannatmonand jamoling ko'rib,
Yashayman dunyoda ko'ksimni kerib,
Yurtim, Mustaqillik to'ying muborak!

Dadaxon RAIMBOYEV,
safdor.

xizmat qilmoqdalar. Eng asosiysi, har ikki mahallada ham jinoyatchilik sezilarli darajada kamaydi va hududlar «yashil» toifaga kiritildi.

Egizaklarning tashqi qiyofasi deyarli bir xil. Shuning uchun ularni ko'pchilik hanuzgacha adashtirib yurishadi.

– Xizmatni yangi boshlagan paytlarimizda ichki ishlar bo'limida ham, ko'cha-ko'yda ham ko'pchilik kim Hasan, kim Husan ekanligini bilmasdi, – deydi Husanxon Anvarov kulib. – Shu bois juda qiziqarli va esda qolarli voqealar ham yuz berib turadi. Masalan, Hasanxon kirib chiqqan joyga men kirsam, «Hozir kirdingiz-ku», deb qaytarib yuborishgan, gohida egizagimning topshirig'ini menga,

yoki aksincha, mening ishimni unga buyurishgan paytlari ham bo'lgan. Ammo biz bunga ko'nikib ketganmiz. Adashmovchilik yuz bersa, darrov vaziyatni tushuntirib, ishimizni davom ettirib ketaveramiz.

Hasanxon va Husanxon Anvarovlarning eng katta o'xshashligi ularning qalbidagi Vatanga muhabbati va kasbiga bo'lgan sadoqatidir. Egizaklarning ota meros sharaffi kasbni munosib davom ettirib, Marg'ilon shahri osoyishtaligini ta'minlash yo'lida yelkama-yelka xizmat qilayotgani esa alohida tahsinga sazovor.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

So'z – gazetxonlarga

IZSH, OB IS, OB - GIB, O'QING - DO'ST BO'LASIZ



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdulhay Karimovning «Postda – Ha posty – At the post» gazetasi haqidagi fikr va mulohazalari.

Donolar so'zlaydi, biz yodga solamiz



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

**Bosh muharrir
o'rinbosarlari**

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrirlar

Erkin SATTOROV
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Dilrabo ABUDHAMIDOVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2436.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50746 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.